

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida  
UDK 657.1 (575) +339

TOJIEV AHMAD

PAXTA TOZALASH SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI  
VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Mutaxassislik: 5A230901- "Buxgalteriya hisobi" (Paxta, to'qimachilik va engil sanoat)

Magistr akademik darajasini  
olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:  
i.f.n. Tillyaxo'jaev M.A.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2014y.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1 BOB. PAXTA TOZALASH SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA AUDITINING TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY MUAMMOLARI</b> .....	7
1.1. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish muammolari.....	7
1.2. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitlarida mahsulot tannarxining o'rne va ahamiyati.....	17
<b>2.BOB. XARAJATLAR HISOBI VA MAHSULOT TANNARXI KALKULYATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY TAMOYILLARI</b> .....	22
2.1. Xarajatlar hisobini tashkil etishning holati va mahsulot tannarxini hisoblashning amaldagi uslubi.....	22
2.2. Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarhini hisoblashning uslublarini takomillashtirish .....	30
<b>3-BOB. PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA XARAJATLAR AUDITINI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI</b> .....	35
3.1. Paxta tozalash korxonalarida xarajatlar auditini tashkil etish.....	35
3.2. Paxta xom-ashyosini qayta ishlash xarajatlarini auditi.....	45
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR</b> .....	53
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	55

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirda paxta kompleksining o'рни va ahamiyati sezilarli darajada o'sib bormoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "...Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'рни tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2013 yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 foizga, qurilish materiallari sanoati 113,6 foizga, engil sanoat 113 foizga va oziq-ovqat sanoati 109 foizga o'sgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin".

Shuningdek, mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu har bir korxonalar rahbari va muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 19.01.2014.

Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining tahlili va auditori xususiyashtirishni rag'batlantirish davrida mulkdorlarga o'z kuchini va imkoniyatlarini baholashda muhim omillardan biri. Davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalarining faoliyatiga saralanuvchi keskin qisqartirilmoqda, xo'jalik sub'ektlari iqtisodiy erkinligi va xuquqlarini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ko'rsatkichlar paxta tozalash sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo'lgan talabni o'sishini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotda paxta tozalash sanoati korxonalariga bo'lgan qiziqish tobora oshib bormoqda. Bu qiziqish iste'molchilarni birinchi navbatda paxta tolasi, lint, chigit, momiq kabi mahsulotlarning xajmi sifatiga bog'liq. Ma'lumki, ishlab chiqarish xajmini kengaytirish va samaradorligini oshirish ishlab chiqarish xarajatlarining tannarxi paxta tozalash korxonasiining mahsulot narxi, foydasi shakillanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Narx, foyda, tannarxi kabi ko'rsatkichlar korxonalar faoliyatini mustaxkamlashda xal qiluvchi omil bo'ladi va ularning o'zaro bog'liqligini, auditorini o'tkazish, moliyaviy va moddiy resurslaridan samarali foydalanishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Mavzuning o'rganganlik darajasi.** Paxta tozalash sanoati korxonalarida xarajatlar hisobi va auditorini takomillashtirishning ayrim nazariy va uslubiy masalalari mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlar X. Anderson, K.Druri, MDH iqtisodchi olimlari A.F.Aksenenko, M.A.Vaxrushina, N.P.Kondrakov, I.A.Lamikin, V.F.Paliy, I.I.Poklad, A.D. Trusov, A.D.Sheremet, shuningdek, Respublikamiz iqtisodchilari E.A.Akramov, Yo.A.Abdullaev, O.U.Bobojonov, A.A. Vahobov, E.F.Gadoev, N.Yu.Jo'raev, A.M.Jumanov. A.K.Ibrohimov, A.A.Karimov, M.Q.Pardaev, A.X.Pardaev, A.S.Sotivoldiev, M.M.To'laxo'jaeva, K.B.O'razov, D.K.Qudbiev, B.A.Xasanov, Z.N.Qurbonov, M.Sh. SHarifxo'jaev, R.O.Xolbekov va boshqalarning ilmiy va o'quv-uslubiy ishlarida o'z aksini topgan. Biroq, bu ilmiy ishlarning aksariyatida bozor munosabatlariga o'tish sharoitida yuzaga kelgan muammolar to'liq va tarmoqni o'ziga xos jihatlarini qamrab olinmagan ya'ni ularning ayrim jihatlarigina tadqiq etilgan. Mazkur muammolarning mavjudligi va iqtisodiyotning liberallasuvi sharoitidagi xo'jalik yuritish talablaridan kelib chiqib

ularning echimlarini hal etishning zarurligi muammoning dolzarbligini ko'rsatib turibdi va ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borishning zarurligini belgilab beradi.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Yuqorida keltirilgan qonuniy-me'yoriy xujjatlarning talablariga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi va auditini takomillashtirishda «O'zpxatasanoat» uyushmasi misolida magistrlik dissertatsiya ishida bajarilgan. Magistrlik dissertatsiya ishi paxta tozalash korxonalaridagi asosiy mahsuloti tola va chigit, shuning uchun korxonada ushbu asosiy mahsulotlar uchun qilingan xarajatlar.

**Tadqiqotning maqsadi** - iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida paxta tozalash sanoati korxonalarida xarajatlar hisobi va auditini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish muammolarini tadqiq qilish;
- iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitlarida mahsulot tannarxining mohiyatini aniqlash;
- xarajatlar hisobini tashkil etishning holati va mahsulot tannarxini hisoblashning amaldagi uslubi tadqiq qilish;
- xarajatlar hisobi va mahsulot tannarhini hisoblashning uslublarini takomillashtirish;
- paxta tozalash korxonalarida xarajatlar auditini tashkil etish;
- paxta xom-ashyosini qayta ishlash xarajatlarini auditi tashkil etish.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, guruhlash, qiyoslash, tanlab kuzatish, iqtisodiy tahlil va statistika usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishida xarajatlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha olingan nazariy va amaliy xulosalar, ishlanmalardan amaliyotda me'yoriy qo'lanmalar tayyorlash, uslubiy ko'rsatmalar yaratishda foydalanish mumkin.

### **Ilmiy yangiligi:**

–iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitlarida mahsulot tannarxining o'rne va ahamiyati ochib berildi;

–xarajatlar hisobini tashkil etishning holati va mahsulot tannarxini hisoblashning amaldagi uslubi takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

–xarajatlar hisobi va mahsulot tannarhini hisoblashning uslublarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berildi;

–paxta tozalash korxonalarida xarajatlar auditi tashkil etish usullari ochib berildi;

–paxta xom-ashyosini qayta ishlash xarajatlarini auditi tashkil etishga oid tavsiyalar berildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosalar va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 61 sahifadan iborat bo'lib, unda 8 ta jadval va 2 ta rasmlar keltirilgan.

# **I BOB. PAXTA TOZALASH SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA AUDITINING TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY MUAMMOLARI**

## **1.1. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish muammolari**

Korxonalarining ishlab chiqarish samaradorliini oshirish bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashining asosiy sharti ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish va mahsulot tannarxini ilmiy asoslangan kalkulyatsiyasini hisoblash usuli ishlab chiqish [9].

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ilmiy asoslanganligi ularning nazariy jixatlari qay darajada ishlab chiqilganligiga bog'liq, ya'ni:

- ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning umumiy qonuniyatlarini umumiy mavjud bo'lgan qarorlardan to'g'rirog'ini tanlab olish imkoniyatini beradigan xolda aks ettirishi;
- ishni amaliy tashkil etilishi darajasini baxolash mezonini bo'lib xizmat qilishi;
- hisob amaliyotini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib berishi kerak.

Korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish jarayonini ikkita o'zaro bog'liq va bir – birini to'ldiruvchi bosqich sifatida ko'rish mumkin:

-ishlab chiqarish ob'ektlari va xarajatlarni xosil bo'lish o'rni bo'yicha hisob olib borish;

-mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi ostida hisobot oyida ishlab chiqarilgan barcha xarajat unsurlaridan foydalanilishini guruxlashtirish va nazorat qilish bo'yicha ishlarning yig'indisini tushunish zarur. Unga quyidagilar kiradi: xarajatlarni ishlab chiqarish ob'ektlari kesimi va ular sodir bo'lish joylari bo'yicha guruxlashtirish; xarajatlarni tannarx kalkulyatsiyasi moddalari va shunga tegishli xarajatlar smetasi moddalari bo'yicha guruxlashtirish; egri xarajatlarni ishlab chiqarish xarajatlari hisobi ob'ektlari bo'yicha dastlabki taqsimlanishi; vositalarni mahsulot ishlab chiqarishga ishlatilishini nazorat qilish.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish bilan o'zaro shartlanadi. Umumiy ko'rinishda ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro shartlashilganligi xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya ob'ektlari, tannarx moddalari bo'yicha xarajatlarni guruxlashtirilishi, xarajatlarni o'lchash birliklari, shuningdek egri xarajatlarni ishlab chiqarish xarajatlar hisobi ob'ektlari o'rtasida taqsimlanishi usullari kelishilganligida aks etadi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi mahsulot tannarxini ishonchli kalkulyatsiya qilish uchun muxim omil hisoblanadi. U xom – ashyo, materiallar, yoqilg'i, ish xaqi va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari ishlatilishini nazoratini ta'minlaydi. Korxonada xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil qilish ishlab chiqarishni tezkor boshqarishning eng zarur vositasi hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishning jonli va buyumlashgan mexnat xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi.

Xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etish uchun xarajatlarni ilmiy asoslangan tasnifini tuzish muxim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish xarajatlari, ularning kelib chiqish o'rnini, xarajatni tashuvchilari va xarajat turlariga ko'ra guruxlashtiriladi.

Kelib chiqish o'rniga ko'ra xarajatlarni tsexlar, uchastkalar va boshqa ishlab chiqarishlar korxonanaing tuzilmaviy bulinamlari bo'yicha guruxlashtiriladi. Xarajatlarni bunday guruxlashtirish mas'uliyat markazlari bo'yicha hisobnitashkil etish va mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini aniqlash uchun zarurdir.

Xarajatni tashuvchilar deb, korxonaning sotish uchun mo'ljallangan mahsulot turlariga aytiladi. Bu guruxlashtirish mahsulot birligining tannarxini aniqlash uchun zarur hisoblanadi.

Turlari bo'yicha xarajatlar iqtisodiy bir turli unsurlar va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruxlashtiriladilar.

Yuqorida sanab o'tilgan xar bir vazifalarni xal etish uchun tegishli xarajatlar mavjud. Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini hisoblash va olingan foyda xajmini aniqlash uchun xarajatlar quyidagilarga bo'linadi:

- kiruvchi va chiquvchi;
- to'g'ri va egri;
- asosiy va qo'shimcha;

-mahsulot tannarxiga kiruvchi (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarishdan tashqari (davriy);

-bir unsurli va kompleksli;

-joriy va bir vaqtli.

Qarorlarni qabul qilish va rejalashtirish uchun:

-doimiy, o'zgaruvchan, shartli doimiy (shartli o'zgaruvchan) xarajatlar;

-baxolash vaqtida hisobga kiritiladigan va kiritilmaydigan xarajatlar;

-qaytarilmaydigan xarajatlar;

-chegaralangan va o'suvchi xarajatlar;

-rejalashtiriluvchi va rejalashtirilmaydigan va boshqaruv hisobida nazorat va tartibga solish funksiyalarini bajarishni amalga oshirish uchun tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan xarajatlar mavjud. SHunday xolatda xarajatlarni ishlab chiqarishning xaqiqiy xajmini hisobga olgan xolda korrektirovka qilinishiga aloxida etibor qaratish zarur.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish xalqaro andozalarda boshqaruv hisobida belgilangan va boshqaruv hisobi mutaxassislar, korxonalar ma'muriyatlari va ularning bo'linmalari tomonidan mahsulotning tannarxini boshqarish uchun axborot etkazib berishi kerakligi aloxida takidlangan.

Mahsulotning tannarxi xaqida ishonchli ma'lumot olishning eng asosiy shartlaridan biri – ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini to'g'ri aniqlashdir.

Konkret korxonalar xarajatlar hisobining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- korxonalar ma'muriyatini ularning iqtisodiy oqibatlarini hisobga olgan xolda boshqaruv qarorlari qabul qilishi uchun axborot bilan ta'minlash;

- xarajatlarning xaqiqiy darajasi ustidan kuzatuv va nazorat o'rnatish. Xarajatlarni chetlashishlarni aniqlash va kelajak uchun iqtisodiy strategiyani shakllantirish maqsadida normativlar va rejaviy xajmlar bilan solishtirish;

- tayyor mahsulotni baxolash va moliyaviy natijalarni hisob-kitob qilish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblash;

- tuzilmaviy bo'linmalar ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijalarini aniqlash va baholash;

- ishlab chiqarish faoliyatida uzok muddatli xarakterga ega bo'lgan: ishlab chiqarish va texnologik dasturlarning o'z-o'zini qoplashi, ichki va tashqi bozorlarda sotilayotgan mahsulot assortimentining rentabelligi, asosiy fondlar va ishlab chiqarish zaxiralariga qo'yilgan mablag'larning samaradorligi xaqida qarorlar qabul qilinishi uchun boshqaruv hisobining axborotlarini tizimlashtirish.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish bo'yicha me'yoriy xujjatlar, shuningdek maxsus adabiyotlar xam xarajatlarni hisoblash va kalkulyatsiya qilish metodlarining aniq tushunchasini bermagan bo'lsa xam, bir qator taniqli olimlar bu tushunchalarni talqin etishning umumiy yondoshuvi bor deb hisoblaydilar. Bu yondoshuv ishlab chiqarish xarajatlari hisobini (avvalgi analitik hisob) xarajatlarni tasniflash tamoyillariga ko'ra tanlash orqali tuzish – xarajatlar, xarajatlar hisobi ob'ektlarining nomenklaturasi (buyumlar, buyurtmalar, ishlov berish jarayonlari, xarajatlar xosil bo'lish joylari va boshq.), yakunlanmagan, tayyor, sotilgan mahsulotlarning tannarxiga taqsimlash usullari va xarajatlarni to'g'ridan – to'g'ri moliyaviy natijalarga kiritish orqali qoplash yo'llarini hisobga olgan xolda tuzishdan iboratdir.

Hisob ishlarining tizimi quyidagi bosqichlarni nazarda tutadi:

-ishlab chiqarishda sarflangan resurslarni ularni ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo'lishi muddatlariga ko'ra dastlabki aks ettirish;

-ishlab chiqarish xarajatlari xaqidagi ma'lumotlarni faoliyat turlari, tuzilmaviy bo'linmalar, xarajatlar xosil bo'lish joylari, mas'uliyat markazlari, mahsulotlar, ishlar bo'yicha tarqatish (bo'lish, sochish);

-ishlab chiqarish xarajatlarini ularni paydo bo'lishi va tannarxga qo'shilishi vaqti, shuningdek boshqa vaqt davrlariga lokalizatsiya qilish;

-korxonaning umumiy xarajatlarini ishlab chiqarish bo'linmalari o'rtasida taqsimlash; umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini yakunlanmagan, tayyor, av sotilgan mahsulotlar tannarxiga kiritish yo'li orqali qoplash;

-xizmat ko'rsatuvchi (yordamchi) xo'jaliklar ishlab chiqarish xarajatlarini uning yakunlamagan va tayyor mahsulotlari o'rtasida taqsimlash va ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha xarajatlarni mahsulot iste'molchilariga qayta taqsimlash;

-yakunlamagan ishlab chiqarish, ishlab chiqarish jarayonida olingan chiqindilarni aniqlash va baxolash, xamda mahsulotning aloxida turlari va butun tovar mahsuloti xajmining tannarxini hisoblash.

Mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etishning negizi quyidagi asosiy tamoyillarda o'rnatilgan:

-buxgalteriya hisobida xarajatlarni iqtisodiy unsurlar va xarajatlar moddalari, mahsulot turlari va korxonaning bo'linmalari bo'yicha guruxlashtirish;

-ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish metodikasini yil davomida o'zgarmasligi;

-xarajatlar hisobi ob'ektlarini mahsulot tannarxini hisoblash ob'ektlari bilan kelishuvi;

-daromadlar va xarajatlarni hisobot davrlariga to'g'ri belgilash;

-ishlab chiqarish joriy xarajatlari va kapital kiritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar hisobidagi farqlanishlar.

Ishlab chiqarish va mahsulotni sotish xarajatlari xaqida axborotni shakllantirishning yagona tamoyillrini ta'minlash uchun davlat tomonidan mahsulot tannarxiga qo'shiladigan xarajatlarni aniqlashning umumiy tartibi, daromad va xarajatlarni guruxlashtirish, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirilishi tartiblari o'rnatib qo'yilgan.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarini rivojlanishi sharoitlarida xarajatlarni boshqarish 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli "Mahsulot (ish va xizmat) larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish (sotish) xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi xaqidagi Nizom" ga binoan amalga oshiriladi.

Bu Nizom mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlarni aniqlashning yagona metodologik asoslari va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibini o'rnatadi.

Nizom xarajatlarni buxgalteriya hisobi uchun va soliq tortish maqsadlari uchun hisoblashda yuzaga keluvchi farqlar hisobga olingan xolda ishlab chiqilgan. Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi xarajatlarni hisoblash va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini ularning raqobatbardoshligini aniqlash uchun o'rganishdir.

Soliqqa tortiladigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi sub'ekt xarajatlarining ayrim moddalarini soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortiladigan baza qo'shilishi yo'li bilan aniqlanadi [7].

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi birligi navbatda buxgalteriya hisobida to'g'ri va to'liq aks ettirish, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijasini moliyaviy hisobot tuzish uchun aniqlashga yo'naltirilgan.

Xarajatlar tarkibi xaqidagiga yo'naltirilgan.

Xarajatlar tarkibi xaqidagi Nizomga binoan xarajatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

-mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;

-mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydigan xarajatlar, lekin asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlariga qo'shiladigan xarajatlar;

-korxonaning umumxo'jalik faoliyatining foydasi yoki zararini hisoblab chiqarishda nazarda tutiladigan xarajatlari;

-foyda solig'i to'laguncha daromad yoki zararni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan favqulotda zararlar.

Shu munosabat bilan xarajatlar guruxlantirilishi quyidagi ko'rinishga ega:

1.Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi:

a) to'g'ri va egri material xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mexnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, ishlab chiqarish mazmunidagi ustama xarajatlar.

2.Davr xarajatlari:

a) sotish xarajatlari;

- b) ma'muriy xarajatlar;
- v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;
- g) kelgusi davrda soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar.

### 3. Moliyaviy faoliyat xarajatlari:

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) chet el valyutasi bilan muomalalar bo'yicha salbiy kurs farqlari;
- v) qimmatbaxo qog'ozlarga qo'yilgan vositalarni ortiqcha baxolash;
- g) moliyaviy faliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

4. Soliqqa tortiladigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi sub'ekt xarajatlarining ayrim moddalarini soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortiladigan baza qo'shilish yo'li bilan aniqlanadi.

Nizomda keltirilga xarajatlar tasnifi birinchi navbatda buxgalteriya hisobida to'g'ri va to'liq aks ettirish, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini moliyaviy natijasini moliyaviy hisobot tuzish uchun aniqlashga yo'naltirilgan.

Xarajatlar tarkibi haqidagi Nizomga binoan xarajatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- mahsulotni ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
- mahsulotni ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydigan, lekin asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlariga qo'shiladigan xarajatlar;
- korxonaning umumxo'jalik faoliyatining foydasi yoki zararini hisoblab chiqarishda nazarda tutiladigan xarajatlari;
- foyda solig'i to'languncha daromad yoki ziyonni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan favqulotda zararlar.

Bu munosabat bilan xarajatlar guruhlantirish quyidagi ko'rinishga ega:

1. Mahsulotning ishlab chiqish tannarxi:
  - to'g'ri va egri material xarajatlar
  - bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
  - boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, ishlab chiqarish mazmunidagi ustama xarajatlar.

## 2. Davr xarajatlari:

- realizatsiya bo'yicha xarajatlar;
- ma'muriy xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;
- kelgusi davrda soliq bazasidan chiqariladigan xarajatlar.

## 3. Moliyaviy faoliyat xarajatlari:

- foizlar bo'yicha xarajatlar;
- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs farqlari;
- qimmatli qog'ozlar qo'yilgan vositalarni ortiqcha baholash;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

## 4. Favqulotda zararlar

Ishlab chiqarish xarajatlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun ishlab chiqarish va kalkulyatsiya ob'ektlarining sintetik va analitik schetlari nomenklaturasini tanlash katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi 21 sonli BHMSga asosan rejasiga binoan mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uchun quyidagi ishlab chiqish schyot qo'llaniladi:

2010 «Asosiy ishlab chiqarish».

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish».

2510 «Ishlab chiqarish xarajatlari».

9400 «Davr xarajatlari ».

2610 «Yaroqsiz mahsulot»

3110 «Kelajakdagi davr xarajatlari».

Ko'rsatilgan schyotlarning debetida xarajatlar hisobga olinadi, kreditda esa ularni hisobdan chiqarilishi. Oy yakunida to'plovchi – taqsimlovchi schyotlarda (2510 «Ishlab chiqarish xarajatlari» 9400, 2610, 3110) hisobga olingan xarajatlarni asosiy va yordamchi ishlab chiqarish schyotlariga hisobdan chiqariladi [8].

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish ishlab chiqarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning harkteri, korxonaning tuzilmasi va o'lchamlar (hajmi) bilan shartlangan holda amalga oshiriladi.

Shu shartlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish xarajatlari hisobining ob'ektlari, korxonaning resurslaridan foydalanishni nazorat qilish usullari va solishtirma hisob variantlari ishlab chiqiladi.

Ishlab chiqarishning har qanday tashkil etilishida xarajat quyidagilarni ta'minlash lozim:

-ishlab chiqarishning xarajatlarini me'yorlar va smetalar bilan solishtirishgan holda korxonada tuzilmaviy bo'linmalari va xarajatlar smetasi kesimida ishonchli va o'z vaqtida aks ettirish;

- buyumlarni tayyorlash jarayonida material, mehnat va pul resurslaridan foydalanishini amaldagi xarajat me'yordagi bilan taqqoslagan holda, ular orqali esa mahsulotning tannarxi bo'yicha rejaviy topshiriqlar bilan taqqoslagan holda tezkor nazorat qilish;

-korxonada tuzilmaviy bo'linmalarining faoliyati natijalarini aniqlash;

-ishlab chiqarishning barcha uchastkalarida tejamkorlik rioya qilish;

-mahsulot tannarxini pasaytirishning qo'shimcha zaxiralarni aniqlash;

-ishlab chiqarishga tadbiriq etilgan tashkiliy - texnik chora-tadbirkorlarning iqtisodiy samaradorligini aks ettirish.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi oldiga qo'yilgan vazifalarning ahamiyati va mazmunini unga qo'yilayotgan talablar belgilab beradi.

Xarajatlar hisobi ko'rsatkichlarning natijaliligi ularning asoslanganligi, tezkorligi va aniqliligi bilan belgilanadi.

Ko'rsatkichlarning asoslanganligi deganda ularni Xujjatlar bilan tasdiqlanishi tushuniladi. Xujjatlar alohida xo'jalik operatsiyalarni qayd etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Xujjatlar bilan tasdiqlangan ko'rsatkichlar yig'indisi ma'lum mahsulotni ishlab chiqishga sarflangan xarajatlarning o'lchami va asoslanganligi aks ettiriladi. Xujjatlar xarajatlar yuzaga kelishining vaqti va joyi, ularni o'rnatilgan iste'mol me'yorlariga mos kelishi, me'yordan chetlanishi sabablari va ularning yuzaga kelishining ayibdorlarini aks ettirishi kerak. Hisob ma'lumotlarining aniqliligi vositalarini sarflanishidagi chetlanishlarni bartaraf etish bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun sharoit yaratadi. SHuningdek, xarajatlar hisobi me'yordan

chetlanishlarini tezkor aks ettirilishi kerak. Ba'zan esa o'sha xarajatlar yuzaga kelmay turib ularni bartaraf etish uchun hisobini yuritishga bog'liq bo'lib qoladi.

Faqat shu hollardagina hisob ma'lumotlari korxonada iqtisodining kundalik boshqaruv quroliga aylana oladi.

Ishlab chiqarish texnologiyalari va chiqarilayotgan mahsulot, korxonalarining masshtablari va tuzilmalari turlicha bo'lgan holda xarajatlar hisobida umumiy tamoyillar ko'zga tashlanadi. Xarajatlar hisobini tashkil etishning quyidagi tamoyillar mavjud:

- xarajatlarni ular paydo bo'lishi vaqtida xujjatlashtirish;
- mahsulot tayyorlashning dastlabki xarajatlarini to'liq aks ettirishi;
- xarajatlarni hisob ob'ektlari bo'yicha guruhlashtirish, ularning tarkibida esa xarajatlar moddalar bo'yicha guruhlashtirish;
- xarajatlarni hosil bo'lish joylarida guruhlashtirishi;
- xarajat hisobi ob'ektlarini kalkulyatsiya qilinadigan ob'ektlar bilan bog'lanuvchanligi;
- o'z mohiyatiga ko'ra hisob ob'ekti bo'lib sanaluvchi xarajat tarkibini kengayishi;
- ma'lum mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni tarqatilishi (lokalizatsiya);
- xarajatlarni amaldagi joriy me'yorlar va shu me'yorlardan chetlashishilar bo'yicha alohida aks ettirish;
- me'yorlar o'zgarishini ishlab chiqarish xarajatlariga qiladigan ta'sirning maxsus hisobga olish;
- ishlab chiqarishda material, mehnat va pul resurslarini tezkor nazorati va ularni qo'llash natijalarini hisobga olish;
- xarajatlar hisobi ko'rsatkichlarini reja bilan bog'lanuvchanligi;
- xarajatlar hisobini schyotlar rejasi bilan aloqadorligi;
- ishlab chiqarishdagi texnik rivojlanish ta'siri ostida hisobni doimiy ravishda takomillashtirish;

## **1.2. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitlarida mahsulot tannarxining o'rnini va ahamiyati**

Resurslardan foydalanish samaradorligi va mulkchilikning barcha shakllarida korxonalarining faoliyatini baholash chog'ida mahsulotning tannarxi, uning tarkibi o'zgarishi qanday talqin qilinishidan qat'iy nazar, muhim ahamiyatga ega.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida mahsulot tannarxining axmiyati ortib boradi, chunki tannarxning pasayishi foyda o'sishining asosiy manbasi hisoblanadi. Shuning uchun «mahsulotning tannarxi» toifasi (tushunchasi)ni nafaqat amaldagi tartibnomalar (reglamentatsiyalar) asosida, balki unga xos bo'lgan iqtisodiy mazmunlarga binoan ham aniqlanishi kerak.

Tannarx deganda, odatda «korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun joriy xarajatlarini pul shaklidagi ko'rinishi» tushuniladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda tannarx toifasi (tushunchasi)ning juda ko'p ta'riflarini uchratish mumkin.

Iqtisodchi olim P.P.Novichenko: «Sanoat mahsulotining tannarxi – uni ishlab chiqarish va sotish (realizatsiya) uchun korxonalar (birlashma) xarajatlarining puldagi ifodasidir» deb yozgan. Mahsulotni ishlab va sotish uchun sarflangan mehnatning barcha xarajatlarini o'zichiga oluvchi va jamiyatga o'sha yoki boshqa mahsulotni ishlab chiqarish qancha tushganligini aks ettiruvchi qiymat tushunchasidan farqli o'laroq tannarx tushunchasi faqat korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarni aks ettiradi holos. Bu fikrga qo'shilish mumkin, chunki mahsulotning tannarxi umuman olganda, jismoniy va predmetlashgan (avvalgi) mehnatlarning yig'indisi bo'luvchi ishlab chiqarish uchun xarajatlariga tengdir.

Olima G.Sokolovskaya tannarxni «resurslarni tejash hajmi» sifatida ta'riflagan. Bu tushunchaga (fikrga) qo'shilish mumkin emas, chunki u bu ko'rsatkichning mazmuniga ziddir. Tannarx nomlanishining o'zidayoq qandaydir mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, shuningdek mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlarning haqida so'z borayotganligini ko'rsatib turibdi. Resurslarni tejash hajmini ishlab chiqarish

jarayonida qatnashish uchun rejalashtirilgan, lekin qatnashmagan ishlab chiqarish vositalari va ish kuchlari belgilab beradi.

Iqtisodchi olim A.D.Trusov tannarxni «predmetlar va mehnat vositalarining ayrim turlarini tayyorlash, ishlab chiqarishni tayyorlash, mahsulotni olish va sotish hamda ishlatilgan resurslarni qayta tiklab olish uchun sarflangan korxonalar xarajatlarini pul ko'rinishida aks etirilishi» deb aniqlashni taklif etgan. Bizning fikrimizcha, tannarx tushunchasini bunday talqin qilinishini to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki ortiqcha detallashtirib yuborilgan va shuning uchun mujmaldir. Birinchidan, predmetlar va mehnat vositalarini tayyorlash o'z tarkibiga qat'iy belgilangan holda: predmetlarning tannarxi va mehnat vositalarining dastlabki qiymatini oladi. Shuning uchun ular mahsulotning tannarxida avval bajarilgan ishning xarajati tarkibiga kiritiladi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishni tayyorlash xarajatlarini tannarxning aniqlangan tushunchalarida ajratish kerak emas. Bu xarajatlar ishlab chiqarishning birinchi davri xarajatlari sifatida kelib, kompleks xarajat hisoblanadi va ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida hisobga olinadi.

Professor V.I.Petrova ham tannarxga nisbatan qiziq fikr bildirgan. Uning fikricha tannarx “ishlab chiqarish mehnatlari va mahsulotni sotish xarajatlarini emas, balki korxonaning xarajatlarini aks ettiradi”. Bunday xulosa, V.I.Petrovaning fikricha, tannarx korxonaning mahsulot ishlab chiqarish uchun mehnat xarajatlariga, bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar tannarxiga kiritilishi sababli qo'shilmas ekan. Ammo bu xarajatlarning xarakteristikasini, shuningdek “korxonaning xarajatlari” tushunchasi va tarkibini V.I.Petrova keltirib o'tmagan. Bu esa tannarx tushunchasining mohiyatini “xiralashtiradi”, uning sifat aniqligini pasaytiradi.

Uzoq vaqtlar davomida tannarxga amaliyotning tushunchasi deb qaralgan va u asosan hisob va tahlilda ishlatiladi va korxonalar faoliyatini iqtisodiy rag'batlantirish fondlarini tashkil etish va faoliyatni kengaytirish bo'yicha baholashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri deb tushunilgan. Bu holat, korxonalar foyda summalarini mahsulot tannarxini pasaytirmay ham o'stirib olishlariga olib keldi. Qolaversa, turli

noishlabchiqarish xarajatlar asossiz ravishda mahsulotning tannarxiga qo'shilib borilardi.

Mahsulotning tannarxi korxonada ishining muhim sifat ko'rsatkichidir va bu ko'rsatkichni hisoblab chiqarishda qandaydir qisqartirishlar yo'l qo'yish mutlaqo mumkin emas.

Hozirgi kunda tannarx ko'rsatkichining o'rni xo'jalik mexanizmining unsuri sifatida sezilarli darajada o'smoqda. "Tannarxning mohiyati, - deb yozadi professor A.F.Aksenenko, siyosiy – iqtisodiy toifa sifatida shundaki, u sarflanayotgan ishlab chiqarish vositalarining qiymati qoplanishini ta'minlaydi va ishlab chiqarish ishchi kuchini mahsulotning qiymatidan farqlagan holda aniqlab beradi. Ishchi kuchi jamiyatning sodda va kengaytirilgan ishlab chiqarish bo'yicha ma'lum vazifalarini xal etishga mo'ljallangan". Bunday metodologik yondoshuv so'nggi vaqtda eng maqbul deb topilmoqda va tannarx toifasining (tushunchasining) iqtisodiy mohiyatini aniqroq tavsiflamoqda, uning chin mazmunini ochib bermoqda.

Mahsulotning tannarxi - korxonada ishlab chiqarish–xo'jalik faoliyatining barcha tomonlari va uning ishining samaradorligini xarakterlovchi sintetik, umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Mahsulot tannarxining rejalashtirilishi, hisobi, nazorati va taxlili maxsuslashtirish va konsentratsiyalash darjasi sifatida korxonalarda mexanik qurollanganlik va ishlab chiqarish vositalarining qo'llanilishi darajalarini, qishloq xo'jaligida erlar, kimyoviy vositalar va ilg'or texnologiyalardan foydalanishni, qishloq xo'jalik ekinlarining xosildorligi va chorva hayvonlarining mahsuldorligini, mehnat ishlab chiqarish unumdorligini, iqtisodiyot rejimi amal qilinishini amalga oshirilishning zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mahsulot tannarxining quyidagi turlari mavjud:

1) Rejaviy tannarx:

A) mahsulotni ishlab chiqarish rejasidagi xarajatlardan iborat bo'lgan rejaviy ishlab chiqarish tannarxi;

B) rejali to'liq tannarx, o'z ichiga rejaviy ishlab chiqarish tannarxi va o'sha mahsulotni sotilishi bilan qo'shilgan rejali xarajatlarni oladi.

2) Faktik (aniq, haqiqiy) tannarx:

A) bevosita mahsulotni ishlab chiqish xarajatlaridan iborat bo'lgan faktik (aniq, haqiqiy) ishlab chiqarish tannarxi;

B) o'z ichiga ishlab chiqarish tannarxi va o'sha mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan faktik (aniq, haqiqiy) xarajatlarni oluvchi faktik (aniq, haqiqiy) to'liq tannarx.

Bizning fikrimizcha, Ya.I. Tsveybak mahsulot tannarxiga nisbatan to'liq aniq tarif bera olgan: "mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (qadoqlash va transportlashtirish xarajatlari, xosil qilinayotgan aylanma uchun narxlardan chegirmalar va boshqalar) ishlab chiqarishning boshqa xarajatlari bilan birgalikda mahsulotning to'liq tannarxini xosil qiladi".

Tannarx turlarining barchasi alohida hisoblanib chiqilishini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Masalan: paxta etishtiruvchi xo'jaliklarda paxta xom – ashyosining tannarxi, paxta tozalash korxonalarida paxta xom – ashyosini dastlabki qayta ishlashdan olingan paxta tolasining tannarxi.

Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tishi nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, balki daromad, korxonada olinayotgan mahsulotning rentabelligini oshirishni ham talab etadi. Paxtachilik va unda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning daromadlilik va rentabelligini oshirish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot, yani paxta xom - ashyosining tannarxini pasaytirish kerak.

Mahsulotni ishlab chiqarish uchun barcha mehnat xarajatlari ishlab chiqarishning umumjamoa xarajatlarini tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish vositalari va jismoniy mehnat xarajatlarida predmetlashgan o'tgan davr mehnati xarajatlarida shakllanadi. Tovar – pul munosabati sharoitlarida oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish umumjamoa xarajatlari qiymat shakliga ega bo'ladilar. Ishlab chiqarish xarajatlari – tovar (mahsulot, xizmat) ishlab chiqarish uchun xarajatlar summasidir. O'zbekistonning xo'jalik amaliyotida xarajatlarni aniqlash uchun tannarxlar toifasi qo'llaniladi.

Mahsulotning tannarxi umumjamoa xarajatlarining qiymat shaklida aks ettirilgan va korxonaning xarajatlarini qoplay oladigan qismidir deb aytish ham mumkin.

Xar bir paxta tozalash korxonasi o'z qoshida bir nechta paxta qabul qilish punktlariga ega. Masalan, Surxondaryo viloyati Sho'rchi paxta tozalash korxonasi 5ta paxta qabul qilish punktlariga ega.

Paxta tozalash korxonalarida tayyorlanayotgan paxta xom-ashyosi va uni qayta ishlash xarajatlari hisobi uchun olingan mahsulotning tannarxini hisoblash bo'yicha turli buxgalteriya xujjatlari qo'llaniladi.

Bu xujjatlar ichida qayta ishlanayotgan xom-ashyoning miqdori va sifati hamda xom-ashyoni qayta ishlagandan so'ng olingan mahsulotni hisobi uchun asosiy xujjat «ishlab chiqarish topshirig'i» (№28 XL shakl). Hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan ishlab chiqarish rekvizitlari paxta xom-ashyosini qayta ishlashdan so'ng olingan mahsulotning navi almashishini aniqlash imkoniyatlari mavjud emas. Chunki amaliyotda qayta ishlash natijasida paxta xom – ashyosining navi almashishi hollari ko'p kuzatilgan.

Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida hisobining amaliyotida paxta xom – ashyosini qayta ishlashdan so'ng quyidagi mahsulotlarni oladilar: paxta tolasini, urug'lar, lint, paxta momig'i va uluk. Bu mahsulotlar orasida asosiy mahsulot – paxta tolasidir, qolganlari ikkinchi darajali mahsulot hisoblanadi. Shuning uchun paxta tozalash korxonalarida paxta tolasining tannarxi hisoblab chiqiladi, qolgan mahsulot (urug'lar, lint, momig' va uluk) larning tannarxi hisoblab chiqilmaydi [19].

Biz bilamizki , paxta tolasini to'qimachilik sanoati uchun asosiy xom – ashyo hisoblansa, urug'lar yog' – moy sanoati uchun asosiy mahsulot hisoblanadi. Shuning uchun biz paxta tolasini qayta ishlangandan so'ng olingan paxta urug'larni paxta tolasiga qo'shilgan mahsulot deb hisoblash va tannarxni nafaqat paxta tolasini bo'yicha, balki paxta urug'lari bo'yicha ham hisoblash maqsadiga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz. Shu shaklda xarajatlar hisobini va mahsulotning tannarxini hisoblab chiqarish muammosini hal etish pirovard natijada buxgalteriya hisobini takomillashtiradi va ishlab chiqarish samaradorligini ortishiga omil bo'ladi.

## **II.BOB. XARAJATLAR HISOBI VA MAHSULOT TANNARXI KALKULYATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY TAMOYILLARI**

### **2.1. Xarajatlar hisobini tashkil etishning holati va mahsulot tannarxini hisoblashning amaldagi uslubi**

Xujjatlashtirish – bu xo'jalik operatsiyalarini miqdor, sifat va qiymat ko'rinishlarida aks ettirish usulidir. Xarajatlarni paydo bo'lish vaqtida xujjatlashtirish esa - bu ishlab chiqarishda vositalardan tezkor nazorat qilish va ulardan foydalanish me'yorlaridan chetlashishlarni hisobga olish uchun zaruriy omildir. Demak, amalga oshirilgan xarajatlarni o'z vaqtida xujjatlashtirish o'sha xarajatlar hisobini tashkil etishning asosiy (negizi) hisoblanadi. Bu holda xujjatlashtirish tushunchasi ostida boshqaruvda qo'llaniladigan barcha iqtisodiy axborat turlari tushuniladi.

Ishlab chiqarish jarayonida turli sabablarga ko'ra hisobga olinmaydigan xarajatlar yuzaga keladi. Masalan, ish haqi hisoblanayotganda so'ngi ishlab chiqarish operatsiyalari oralig'ida joylashgan operatsiyalarni bajarish uchun ish haqi xarajatlarda aks etmaydi. Tayyor mahsulotni hisob-kitob qilish vaqtida tugatilmagan buyumni tayyorlashga tegishli bo'lgan barcha xarajatlar, shu qatorda hisobot davri oxirida ishlarni bajaruvchilarga hisoblanmagan xarajatlar ham aks ettirilishi kerak.

Xarajatlar hisobining ob'ekti tushunchasi maxsus adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Hisob ob'ekti sifatida joriy hisobda ishlab chiqarish xarajatlarining guruhi tushuniladi. Bu xarajatlar guruhi tannarxni boshqarish vazifalarini hal etish uchun guruhlashtirilgan bo'lib, mahsulot tannarxi yoki xarajatlarning yig'indisini aniqlashga imkon beradi. Iqtisodchi olim I.A.Bosmanov hisobning ob'ekti deb mahsulot turlarining tannarxini kalkulyatsiya qilish, vositalarni maqsadli mazmunda ishlatishni nazorat qilish, xo'jalik hisob – kitobini tashkil etish uchun ishlab chiqarish xarajatlarining guruhlashtirishni tushunish kerak deb hisoblaydi.

Taniqli iqtisodchi V.F. Paliy o'z ishida ko'pchilik olimlar xarajat hisobi ob'ekti va kalkulyatsiya ob'ekti tushunchalarini chalkashtirib yuborayotganlarini ta'kidlab o'tgan. Qolaversa hisob ob'ekti xarajatlar guruhi sifatida noto'g'ri talqin qilinmoqda,

ya'ni ob'ekt tushunchasi hisob metodi bilan almashib qolayapti. Ta'kidlash zarurki, ayrim mualliflar bu tushunchani umuman rad etishadi yoki biroz kengroq tushuncha «kalkulyatsion schyotlarning analitik pozitsiyalari» (xarajatlarni ishlab chiqarishga to'plam ob'ektlari) deb talqin etishadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining ob'ekti sifatida V.F. Paliyning fikricha «tannarxning ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun turli belgilarga ko'ra guruhlashtirilgan, real bazaga keluvchi ishlab chiqarish xarajatlarini» tushunish kerak xarajatlar guruhlarni belgilari ishlab chiqarish jarayonining turli ob'ektiv harkarakteristikalarini ishlab chiqarish va tannarxning xarajatlari shakllanishini aks ettiradi. Kichik (tor) hisob mazmunida xarajatlar hisobining ob'ekti - bu nazorat va boshqarish maqsadlarida axborat olish uchun ma'lumotlarning kodirovka aniqlovchi guruhni belgisidir.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining dastlabki (unsurli, elementli)\_ob'ektlar – turli ishlab chiqarish operatsiyalarini bajarishdagi mehnat va material resurslarning xarajatlari, turli mashinalar, mexanizmlar, jihozlar, uskunalar, binolar va inshoatlarni saqlash va ekspluattsiya qilish bo'yicha xarajatlardir. Ushbu dastlabki xarajatlar haqida ma'lumotlar buxgalteriya hisobi metodining elementlari va hisob amallari yordamida guruhlashtiriladi hamda boshqaruv uchun zarur bo'lgan hisob ko'rsatkichlarni shakllantirigan holda turli belgilarga ko'ra umumlashtiriladi.

Respublikamiz iqtisodiy adabiyotlarida xarajatlarni ishlab chiqarishga iqtisodiy unsurlar bo'yicha bo'lish mohiyati anchayin yuzaki aniqlanmoqda. Odatda ta'kidlanadiki, iqtisodiy elementlar (unsurlar) sifatida tarkibiy qismlarga ajratib bo'lmaydigan iqtisodiy bir turdagi dastlabki sarf (xarajat) lar tushunilishi kerak.

Bu izoh xarajatlarni iqtisodiy unsur sifatidagi texnik tomanini xarakterlab, uning mohiyatini ochib berolmaydi, ko'plab dasrliklarda esa umuman xarajatlar unsurlariga tushuncha berilmagan. Bizning fikrimizcha, xarajat unsurlari mohiyatini I.A.Lamikin to'g'ri belgilagan. U «xarajatlarni iqtisodiy belgiga ko'ra ishlab chiqarish unsurlariga bo'lish mehnat jarayoni har qanday ma'lum umumiy shakldan mustasno holda, mehnat ta'siri etadigan predmet yoki o'sha mehnatning o'zi va u xarakatlanyotgan mehnat vositalarining maqsadli faoliyatidan iboratligi bilan izohlanadi»- deb yozgan.

Xarajatlarni iqtisodiy unsurlar bo'yicha guruhlashtirish ularning qiymatni yaratishga munosabatini xarakterlaydi, zarur va qisman qo'shimcha ma'lumotdan iborat ko'chirib o'tilgan va yana qayta yaratilgan qiymatni ajratishga, ishlab chiqarish vositalari qiymati va tannarxga qo'shiluvchi qo'shimcha mahsulot qiymatining qismdan mehnatga pul to'lashning pul fondini belgilovchi ishlab chiqarish xarajatlarini ajratishga imkon beradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining ilmiy tasnifini birinchilardan bo'lib V.I.Stotsikiy yaratgan. U ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy va ustama, to'g'ri va egri, o'zgaruvchan va o'zgarmas (doimiy), yoki proporsional va qayd etilgan xarajatlarga ajratilgan. Ustama xarajatlarni V.I.Stotskiy qo'shimcha tarzda bo'ysinuvchi va mustaqil xarajatlarga, ya'ni ularga korxonadan tomonidan ta'sir etilish va muvofiqlashtirishidan kelib chiqqan bo'ysinuvchi va mustaqil bo'lishi isbotlangan.

Asosiy xarajatlarga mahsulotni ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq bo'lgan va bir marttalik ishlab chiqarish jarayonida ishlatiluvchi xarajatlarni kiritgan, qolganlarini ustama xarajatlariga belgilagan

O'zgarmas (doimiy) va o'zgaraydigan xarajatlar ularning (o'zlarining) ishlab chiqarishning o'lchami va mahsulotning hajmiga munosabatiga bog'liq.

Ustama xarajatlarni I.I.Poklad ta'riflaganidek «ishlab chiqarish va boshqarishga xizmat ko'rsatuvchi xarajatlar» deb atalgani ma'qul deb hisoblaymiz. O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarishi ta'siri ostida turlicha o'zgaradi. Ular orasida o'suvchi xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi o'sishidan yuqori o'sishga ega bo'ladi; proporsional xarajatlar - ishlab chiqarish hajmiga proporsional ravishda o'zgaradi; Degressiv xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi o'zgarishidan ortda qoluvchi yoki absolyut pasayish xususiyatiga ega xarajatlar ajratib ko'rsatilgan.

Xarajatlar xarakterini (mazmuni, mohiyatini) to'liq anglashga bo'lgan intilish alohida xarajatlarning mazmuni va mohiyatini ochib beruvchi ya'ni tasnifiy belgilarini izlashga majbur etadi. Bizning fikrimizcha, V.F.Poliy tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarini turli belgilar bo'yicha tasnivi to'liqroq yoritilgan.

Demak, ishlab chiqarish xarajatlari hisobi biri tomondan ma'lum mahsulotni tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan, xarajatlar shakllanish jarayonini bildiruvchi

ob'ektlar bo'yicha, ikkinchi tomondan xarajatlarni paydo bo'lish joylari bo'yicha to'plash uchun qo'llaniluvchi, ularni nazorat qilish va mahsulot turi yoki moliyalashtirish manbalariga ko'ra ikkilanmchi taqsimlanishi bo'yicha ob'ektlar bo'yicha tashkil etiladi.

Bir qator mualliflar korxonada xarajatlarini turli tasnifi belgilarga ko'ra quyidagi asosiy guruhlarga ajratadi.

1. Ularning ishlab chiqarish jarayonidagi funksiyasidan kelib chiqqan holda:

- ishlab chiqarish xarajatlari;
- noishlab chiqarish xarajatlari;

2. Mahsulot qiymatiga tegishliligiga kelib chiqqan holda:

- to'g'ri xarajatlar;
- egri xarajatlar;

3. Sotilgan mahsulot hisobdan chiqarish vaqtiga bog'liq holda:

- mahsulot tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
- davr xarajatlari;

4. Sotilgan mahsulotning o'zgarishiga bo'lgan munosabatiga ko'ra:

- o'zgaruvchi;
- doimiy;
- doimiy o'zgaruvchan.

Boshqa tasnif mezonlari ham mavjud bo'lib, ular bo'yicha nazorat qilinaligan, relevant mahsulot biriligining o'rtachasi olinadigan va boshqa xarajatlar aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liqdir.

Ular quyidagilarga bo'linadi:

- bevosita material xarajatlar;
- bevosita ish haqi xarajatlar;
- ishlab chiqarish ustama xarajatlari.

Material va ishlab chiqarish uchun bevosita xarajatlar dastlabki xarajatlar deb ataladi.

Ish haqi uchun bevosita xarajatlar va ishlab chiqarish ustama xarajatlarini konversion xarajatlar deb ataladi. Konversion xarajatlar - bu material qiymatini

tayyor mahsulotga ko'chirib o'tish xarajatlaridir. Materiallar uchun buvosita xarajatlar va konversion xarajatlar mahsulotning to'liq ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi.

Bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa barcha xarajatlar noishlab chig'arish xarajatlari deb ataladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari – bu realizatsiya xarajatlari, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar xarajatlari, umumiy va ma'muriy xarajatlar, boshqaruv xarajatlari, sotish xarajatlari kreditlar bo'yicha to'lov va boshqa bevosita korxonaning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlaridir.

### 2.1.1-jadval

#### “Surxondaryo paxtasanoat” XAB ishlab chiqarish tannarxi kalkulyatsiyasining tuzilish (2013y.)

№	Xarajat turlari	Jami, m.s.		1 t.tola xar-t.		Farqi, so'm	
		reja	haqiq.	reja	haqiq.	Jami xar-t.	1t. tola. xar-t
Qayta ishlov bo'yichaxarajatlar							
1	Ish haqi	105996	173793	52458	21073	67797	-31385
2	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	32256	57352	85968	6954	25096	-9014
3	Elektro energiya	43499	89391	25534	10839	45892	-10695
4	Amortizatsiya	2517	11433	5659	305	8916	-5354
5	Ta'mirlash	10254	26679	5076	3224	16425	-1842
6	YOqilg'i	36819	45798	88207	5553	8979	3426
7	O'rash materiallari	63283	206845	31328	25081	143562	-6247
8	Transport xarajatlari	29638	39656	14672	4808	10018	-9864
Jami qayta ishlov xarajatlari		31028	280742	57807	34046	163966	-23761
Tayyorlov xarajatlari		116776	280742	57807	34046	163966	-23761
Ikkilamchi mahsulot (chegiriladi)		71359	452545	35326	42575	381186	-409970

Xom ashyoning xarid narxi	1274121	5248382	630752	636399	3974261	5647
Jami ishlab chiqarish tannarxi	1618859	6869960	801415	703749	5251101	-97666

Ishlab chiqarish xarajatlarini noishlab chiqarish xarajatlaridan ajratilishi korxonaning faoliyati natijalariga ta'sir qiluvchi omillarni mujassamlashtirilgan tahlilini o'tkazish zarurligi bilan ifodalanadi.

Davr xarajatlari hisobotda ajralishining sabablari ishlab chiqarish xarajatlarini korxonaning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan noishlab chiqarish xarajatlarining qismdan ajratib turishidir. Bunday yondoshuvning asosiy maqsadi va natijasi davr xarajatlarini material - ishlab chiqarish zahiralarning qiymatiga qo'shilmasligi va keyingi hisobot davriga tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i sifatida ko'chirib o'tkazilmasligidir.

O'zgaruvchi xarajatlar chiqarilgan mahsulotning hajmi o'zgashishi bilan o'zgaradi. O'zgaruvchan xarajatlarga materiallar uchun bevosita xarajatlar va bevosita ish haqi xarajatlari kiradi. O'zgaruvchan xarajatga misol sifatida masalan jihozning sarflangan elektr energiyasi to'lov ishchilar mehnatning vaqtbay to'lovi va boshqalarni misol keltirish mumkin.

O'zgaruvchan xarajatlarning xususiyati – bu ishlab chiqarish hajmlari o'sgan holatda mahsulot birligining o'zgaruvchan xarajatlari o'zgarmasligidir.

Doimiy (o'zgarmas) xarajatlar – bu ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda o'zgarmaydigan xarajatlardir.

Doimiy (o'zgarmas) xarajatlarga binoning ijara to'lovi, boshqaruv personalining ish haqi va boshqalar misol bo'la oladi. Bunday xarajatlar vaqt o'tishi bilan o'sishi mumkin, lekin ular ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga proporsional ravishda o'zgarmaydi.

Doimiy (o'zgarmas) xarajatlarning xususiyati – ishlab chiqarish hajmi o'sganda mahsulot birligining o'zgarmas xarajatlari pasayadi.


Doimiy (o'zgarmas) – o'zgaruvchi xarajatlar doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarning aralashmasidir. Doimiy (o'zgarmas) va o'zgaruvchan xarajatlarning

umumiy summasi xuddi o'zgaruvchi xarajatlar singari, ya'ni ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga qarab o'zgaradi, ammo bu o'zgarish proporsional xarakterga ega emas.

Masalan, ishlab chiqarish hajmi 10 % ortganda, doimiy (o'zgarmas) – o'zgaruvchi xarajatlar faqat 8 % ortadi. Doimiy (o'zgarmas) – o'zgaruvchi xarajatga telefon uchun to'lovni ko'rsatish mumkin. Telefon uchun to'lovning doimiy qismi – telefondan foydalanganlik uchun to'lov bo'ladi, o'zgaruvchi qismi esa – shaharlararo suhbat uchun to'lovdur.


Doimiy xarajatlar ma'lum vaqt oralig'ida, hatto ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori o'zgarsa ham o'zgarmas bo'lib qolaveradi.

Misol: Berilgan bino uchun ijara va boshqa shunga o'xshash to'lovlar ishlab chiqarishning har qanday darajasida o'zgarmas bo'lib qolaveradi.



**2.1.1-Rasm. Doimiy xarajatlar dinamikasi grafigi**

O'zgaruvchan xarajatlar – mahsulotni chiqarishni proporsional o'zgaruvchi xarajatlardir. Misol: sanoat ishlab chiqarishda xom ashyo sarfi.



### 2.1.2-Rasm. O'zgaruvchan xarajatlar dinamikasi grafigi

Korxonaning barcha xarajatlari yoki doimiy (o'zgarmas) yoki o'zgaruvchi sifatida tasniflanishi mumkin. Buning uchun doimiy (o'zgarmas) – o'zgaruvchi xarajatlardan tegishli qismni ajratish zarur.

Yarim o'zgaruvchan xarajatlar. Ba'zan o'zgarmas va o'zgaruvchi xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik tushunarsizdir; ba'zi bir xarajatlar, masalan: telefon, gaz, elektr energiyasi uchun to'lovlar odatda bir miqdorda o'rnatilgan (bazisli), qayd etib qo'yilgan summadan (telefon uchun to'lov) va bu xizmatlardan foydalanish intensivligidan kelib chiqadigan ustama haqlari iborat bo'ladi (xalqaro suhbatlar uchun to'lov).

Ishlab chiqarish xizmatchilarining ish vaqti xarajatlarining me'yordan yuqori sharoitlaridagi ish haqi ham bunga misol bo'la oladi.

“Xarajatlar – mahsulotni chiqarish” bog'liqligi. Xarajatlar va mahsulotni chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikni. Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to'g'ri tashkil etilganligi mahsulot tannarxini pasaytirishga omil bo'la oladi. Hisobda mahsulot chiqishini har bir bo'linma va mahsulot turi bo'yicha minimal vaqt va vositalar xarajatlarida hamda hisobni tezkorligi va takomillashuvini oshirish orqali chiqishini ta'minlash zarur.

## **2.2. Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarhini hisoblashning uslublarini takomillashtirish**

Iqtisodiy adabiyotlarda “kalkulyatsiya” atamasi tannarx hisoblab chiqishni bildiradi. Shuning uchun “A mahsulotning tannarxi kalkulyatsiyasi” deb aytilsa yoki yozilsa, taftologiyaga (so’zni besamara ishlatish) yo’l qo’yilgan bo’ladi, chunki “A mahsulotning kalkulyatsiyasi” deyilsa gap A mahsulotning tannarxi hisoblab chiqish borayotganligi aniq bo’ladi.

Hozirgi kunda iqtisodchilar ko’p hollarda kalkulyatsiyani faqat kalkulyatsiya qilishning natijasi sifatida tushunadilar. Tannarxni hisoblab chiqishning to’liq jarayoni va kalkulyatsiya hisoblab chiqishning natijasi ya’ni aniqlangan qiymatni ko’rsatuvchi hisob deb tushunish kerak.

Tannarxni hisoblashning hozirgi kundagi holatini kirib chiqishdan oldin bu tushunchaning iqtisodiy mohiyatini ko’rib chiqamiz. Hisob amaliyotida “kalkulyatsiyalash” va “tannarxni hisoblab chiqish” tushunchalari qo’llaniladi. Bizning fikrimizcha ikkala tushuncha o’zaro bog’liqdir, chunki mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish haqiqiy tannarxni aniqlashdir, ya’ni mahsulotning tannarxini hisoblashdir.

Tayyor mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish metodlari tasnifining asosi sifatida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi ob’ektlari, kalkulyatsiyalash ob’ektlar va mahsulot tannarxini nazorat qilish usullari tushuniladi.

Tayyor mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashning ko’p sonli metodlarini ikki asosiy yo’nalishi bo’yicha tasniflash mumkin ishlab chiqarish xarajatlari shakllanishini nazorat qilishning tezkorligi bo’yicha mahsulot tannarxini ishlab chiqarish jarayonida kalkulyatsiyalash va ishlab chiqarishning o’tgan davr xarajatlarini hisoblash metodi.

Ishlab chiqarish xarajatalari hisobi ob’ektlari bo’yicha odatda yalpi va seriyali ishlab chiqarishda, (detallar, buyumlar qismlari, ishlar bir turli buyumlar guruhlari, jarayonlar, qayta ishlashlar bo’yicha) yakka tartibli va mayda seriyali ishlab chiqarishlarda qo’llaniladigan metodlardan foydalaniladigan.

Mahsulotning tannarxini kalkulyatsiyalash metodlarini umumiy qabul qilingan tasnifi holigacha ishlab chiqarilmagan quydagi metodlar keng tarqalagan hisoblandi: me'yoriy, qayta qilish usuli bo'yicha, buyurtmalar bo'yicha, jarayonlar bo'yicha, direkt-kosting metodi va standart - kost metodi. Ularning asosiy mazmunini ko'rib chiqamiz.

Me'yoriy metod (usul)- halq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlari me'yoriy hisobini asosi ishlab chiqarish iste'molini me'yorlashtirish, me'yorlar bo'yicha ularni o'zgarishi va kelgusi me'yorlardan og'ishishlarni aniqlashni hisobga olgan holda oldindan hisob – kitob qilish hisoblanadi. Me'yoriy usul ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir, chunki bu usul ishlab chiqarish operatsiyalarida mehnat va material resurslari xarajatlarini majburiy me'yorlashtirish nazarda tutadi.

Me'yoriy usulning eng zarur unsuri me'yorlar, ularning sabablari va omillarining o'zgarishidir. Buning natijasida ishlab chiqarishni rivojlantirish va ishlab chiqarish resurslarini tejash bo'yicha ilmiy – texnik va tashkiliy chora – tadbirlarni tadbiq etilishi va samaradorligini tezkor nazorat qilishga muvofiq bo'linadi.

Me'yoriy hisob - ishlab chiqarish xarajatlari hisobining universal usulidir. Uni ishlab chiqarishning har qanday tarmog'i va tashkilotida, mahsulotning xususiyatida, har qanday korxonada qo'llash mumkin.

Xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiyalashning me'yoriy usuli korxonada buyumning har bir turi bo'yicha birlamchi (boshlang'ich, avvaldan) me'yoriy kalkulyatsiya tuzilishi, ya'ni oy boshlanishida amalda bo'lgan materiallar va mehnat xarajatlarini sarflash me'yorlari bo'yicha hisoblangan tannarx kalkulyatsiyasi tuzilish bilan harkterlanadi.

Me'yor - bu progressiv texnologiyalar va ishlab chiqarilishi tashkil etish sharoitlarida xo'jalik faoliyati natijalarini oldindan o'rnatilgan raqamli ko'rinishi. Me'yoriy kalkulyatsiyalar material va texnik resurslar sarflanishining texnik asoslangan me'yorlari asosda hisoblanadi. Ular o'z navbatida mahsulotni ishlab chiqarish texnik xujjatlariga binoan o'rnatiladi va korxonada xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarini namoyish etuvchi o'zaro bog'langan tizimni hosil qiladi.

Me'yoriy kalkulyatsiya mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash, ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotni baholash tugallanmagan ishlab chiqarish o'chamlarini baholash uchun qo'llaniladi. Amaldagi me'yorlaridan barcha o'zgarishlar oy davomida me'yoriy kalkulyatsiyalarda aks etadi. Me'yoriy ishlab chiqarishini o'zlashtirish holati, material va mehnat resurslardan foydalanishni yaxshilanishga ko'ra o'zgarishi (odatda, pasayishi) mumkin.

**2.2.1-jadval**

**“Surxondaryo paxtasanoat” XAB da tannarxni oddiy usulda kalkulyatsiya qilish hisob-kitobi**

№	Mahsulot turlari	Bir yila ishlab chiqarilgan mahsulot, t.	1 t. mahsulotning rejadagi tannarxi, so'm	Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot reja xar. m.s.	Taqsimlash koeffitsienti	Haqiqiy xarajat, m.s.	1 t. mahsulot birligi uchun xarajat, so'm
1	Paxta tolasi	9902	565185	55964619	1,40	78910170	796911
2	Chigit	14347	692941	90378066	1,40	100235602	698652
3	Lint va boshqa mahsulotlar	4444	89658	398841	1,40	8701219	12641782
	Jami ishlab chiqarish tannarxi	28693	139856	40128880	1,40	10812667	195797

Hisob shunday tashkil etiladiki, unda barcha jaroiiy xarajatlar me'yorlar bo'yicha va me'yorlardan chetlanishi bo'yicha ajratiladigan. Aniqlangan chetlanishilar haqidagi ma'lumotlar buyumning tannarxini boshqarishga imkon yaratadi va shu bilan birgalikda haqiqiy tannarxni me'yoriy tannarxga har bir modda bo'yicha me'yorlardan chetlanishning tegishli ulushini qo'yshish yo'li bilan kalkulyatsiya qilishni ta'minlaydi (2.2.2-jadval).

## 2.2.2-jadval

**“Surxondaryo paxtasanoat” XAB da paxta xom ashyosini tayyorlash  
transport xarajatlarining tarkibi**

№	Xarajat turlari	Jami xarajatlar m.s.	%
A	To'g'ri tayyorlash xarajatlari, (buntlash va joylash)		
	a) ishchilarning asosiy va qo'shimcha xarajatlari	58265	3,9
	b) ijtimoiy sug'urta ajratmalari	19287	1,3
	c) materiallar	39443	26,4
	d) zagatpunktga tashish xarajatlari		
	e) boshqa xarajatlar	56625	37,9
	Jami «A» bo'lim bo'yicha	45585	30,5
		149407	67,0
B	Umumiy xarajatlari		
	a) Boshqaruv apparat xarajatlari	2049	9,0
	b) Ijtimoiy sug'urta xarajatlari	1874	3,8
	c) Joriy ta'mirlash xarajatlari	18471	81,2
	d) Boshqa xarajatlar	1352	6,0
	Jami «B» bo'lim bo'yicha	22746	10,2
V	Omborxon va saqlash xarajatlari	51	0,1
	Asosiy va qo'shimcha ish xaqi	16	-
	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	47030	92,5
	Materiallar	661	1,3
	Laboratoriya xarajatlari	3085	6,2
	Boshqa xarajatlar	50843	22,8
		Jami «V» bo'lim bo'yicha	
	A+B+V bo'lim bo'yicha xarajatlarining xammasi	222996	4,5
	Paxtani tayyorlash – transport xarajatlari jami qiymati	4955460	100

Xarajatlar hisobi va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning me'yoriy usuli oy oxirini kutmasdan, buyumlarning haqiqiy tannarxlariga ega bo'lish, shuningdek muttasil ravishda (10 kunda 1 marta yoki tezroq) chetlanishlar sababini tahlili qilish va ularning aybdorlarini aniqlashga sharoitlar yaratib beradi.

Me'yorlardan chetlanishni sababini poydo bo'lish vaqtida o'rganishga imkon yaratadi. Boshqa usullarda masalan, kalkulyatsiyaga nisbatan «tarixiy» yondoshuvda chetlashishning sabablari va aybdorlari agar aniqlansa, orqa tannarx kalkulyatsiyasi tuzilganidan keyin aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashning me'yoriy usulini odatda yalpi va seriyali ishlab chiqarishga ega bo'lgan qayta ishlash sanoati tarmoqlarida qo'llaydilar.

Uning mohiyati quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish xarajatlarining alohida turlari me'yoriy kalkulyatsiyalar bilan o'rnatilgan joriy me'yorlar bo'yicha hisobga olinadi;

Haqiqiy xarajatlarni joriy me'yorlardan chetlashishi tezkor hisobini chetlashishlar paydo bo'lish joyini, sabab va ularni paydo bo'lish sabablarini ko'rsatgan holda yuritiladi; tashkiliy – texnik chora – tadbirlarni tadbiriq etish natijasida xarajatlarning joriy me'yorlariga kiritiladigan o'zgarishlar hisobga olinadi va bu o'zgarishlarning mahsulot tannarxiga ta'siri o'rganiladi. Mahsulotning haqiqiy tannarxi joriy me'yorlar bo'yicha xarajatlar summasini me'yorlardan chetlashish va me'yorlarning o'zgarishi hajmlariga qushilish yo'li bilan aniqlandi.

Ishlab chiqarish xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashning me'yoriy usulini qo'llash asosiy xarajatlar me'yorlari asosida me'yoriy kalkulyatsiya va ishlab chiqarishga hamda boshqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar smetasini ishlab chiqishni talab etadi.

Texnologik jarayonlari stabilligi bilan ajralib turuvchi korxonalarda xarajatlar me'yorlari kam o'zgaradigan, shuning uchun rejaviy tannarx me'yoriy tannarxdan kam farqlanadi. Bu korxonalarda me'yoriy kalkulyatsiyalar o'rniga rejaviy kalkulyatsiyani qo'llash mumkin.

Haqiqiy xarajatlarning o'rnatilgan me'yorlardan alohida xarajatlar bo'yicha chetlashishni xujjatlashtirish usuli yoki inventarli usul bilan aniqlandi.

Xarajatlarning me'yorlar bo'yicha va ulardan chetlashishning joriy hisobi, odatda, faqat to'g'ri xarajatlar bo'yicha yuritiladi. Egri xarajatlar bo'yicha chetlashishlarni mahsulot turlariga oy yakunida taqsimlanadi.

### **III-BOB. PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA XARAJATLAR AUDITINI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

#### **3.1. Paxta tozalash korxonalarida xarajatlar auditini tashkil etish**

Ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi elementlar bo'yicha guruhlashtiriladi:

1. ishlab chiqarish moddiy (material) xarajatlar (qaytariluvchi chiqindilar qiymati qo'shilgan holda).
2. ishlab chiqarish harkteridagi mehnat uchun to'lov xarajatlari;
3. ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar;
4. asosiy vositalar va ishlab chiqarish yo'nalishidagi nomaterial aktivlar amortizatsiyasi;
5. ishlab chiqarish xarakteridagi (ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan) boshqa xarajatlar

Paxta tozalash korxonasida 1 elementga, ya'ni ishlab chiqarish material xarajatlariga paxta xom ashyosining qiymati, uni sotib olish, tayyorlash, saqlash va korxonalarining markaziy omborlariga tashqi yoki transporti bilan etkazib borish kabi barcha xarajatlari kiradi. Bu elementda mahsulotni tayyorlash jarayonida normal texnologik jarayonni ta'minlash uchun ishlatiluvchi sotib olingan materiallar, shuningdek o'rash materiallari yoki boshqa ishlab chiqarish extiyojlari (ta'minlash, jihoz, bino, inshoot va boshqa asosiy vositalarni ta'mirlash va ulardan foydalanish) sarflanadigan materiallar qiymati va yana jixozni joriy va kapital ta'mirlash uchun ishlatilgan extiyot qismlar qiymati asboblarni moslamalar, maxsus kiyim va boshqa kam qiymatli predmetlar qiymati aks ettiriladi.

«Ishlab chiqarish material xarajatlari» elementiga yana quyidagilar kiritiladi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektda montaj qilish yoki qo'shimcha ishlov berilishi lozim bo'lgan butlovchi buyumlar va yarim fabrikatlar qiymati;
- tashqi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan shuningdek xo'jalik sub'ektining ichki tuzilmaviy bo'linmalari tomonidan bajariladigan, asosiy faoliyat

turiga bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish harkteridagi ishlar va xizmatlar (xarajatlari degan so'zni qo'shish kerak).

- Ishlab chiqarish harkteridagi (ishlab chiqarish bilan bog'liq bilan) ishlar va xizmatlarga mahsulotni tayyorlash, xom ashyosi va materiallarni qayta ishlash bo'yicha alohida operatsiyalarni bajarish, iste'mol qilanayotgan xom ashyo va materiallarning sifatini aniqlash, uchun sinovlar o'tkazish, o'rnatilgan texnologik jarayonga amal qilinishini nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini ta'mirlash va boshqalar bo'yicha opertsiyalarni bajarish;

- Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmati ko'rsatishi (xom-ashyo, materiallar, jihozlar, detallar, tayyorlamalar va boshqa yuklarni tsexlarga (bo'limlanga) tashib ko'chirib o'tish va tayyor mahsulotni saqlash omborlarga tashish);

- Tabiiy xom ashyo xarajatlari (erlarni rekultivatsiya (qayta) qilish ajratmalari, maxsuslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan erlarni rekultivatsiyalash uchun to'lovlar), o'tin uchun to'lov, suv xo'jalik tizimidan sanoat korxonalari tomonidan o'rnatilgan limitlar me'yorida va unda ortiq me'yorda olib qolinadigan suv to'lovi xarajatlari;

- Texnologik maqsadlar, barcha turdagi energiyani ishlab chiqarish, binolari isitish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari sarflangan barcha turdagi tashqaridan sotib olingan yoqilg'i xarajatlari;

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik extiyojlariga sarflangan barcha turdagi sotib olingan energiya xarajatlari.

«Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnat uchun to'lov xarajatlari» elementida uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qiingan mehnatga haq to'lash, shakli va tizimiga muvofiq holda kelishuv baholari, tarif stavkalari va mansab okladlaridan kelib chiqib hisoblanadigan faktik bajarilagn ish uchun to'lanadigan asosiy va qo'shimcha ish haqi aks ettiriladi. Shuningdek:

- ishlab chiqarish hisobi bo'yicha birlamchi Xujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiish harkteridagi to'lovlar;

- kasbiy maxorat va murabbiylik uchun tarif stavkalari va okladlarga qo'shilgan ustama;

- ish rejimi va mehnat sharoiti bilan bog'liq bo'lgan qoplama xarakteridagi to'lovlar;

- foydalanilmagan (ishlab berilmagan) vaqt uchun to'lov (ta'til pullari, ta'tildan foydalanmaganlik uchun to'lov, o'smirlarning imtiyozli soatlari uchun to'lov va boshqalar);

- o'rnatilgan tartib bo'yicha ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi ishchilarning mehnati uchun to'lov fondiga kiritiladigan boshqa to'lov turlari.

Xarajatlarning uchinchi elementi «Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta uchun ajratmalar» bo'lib, mehnatga xaq to'lash fondiga qonunchilik me'yorlari bo'yicha o'rnatilgan majburiy ajratmalarni, nodavlat nafaqa fondi, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va boshqa ixtiyoriy sug'urta ajratmalarini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining to'rtinchi elementi «Asosiy vositalar va ishlab chiqarish maqsadidagi (yo'nalishdagi) nomaterial aktivlarning amortizatsiyasi»dir. Unga ishlab chiqarish asosiy vositalari, shu jumladan lizing sotib olingan asosiy vositalarning boshlang'ich (birlamchi, qayta tinlanuvchi) qiymatidan va o'rnatilgan tartibdagi me'yorlar, shu qatorida qonunchilik asosida amadga oshiriladigan tezkor amortizatsiyadan kelib chiqib hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish), xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan ishlab chiqarish maqsadi (yo'nalish) dagi nomaterial aktivlarining boshlang'ich (birlamchi) qiymat hamda ulardan unumli foydalanish muddatidan kelib chiqib hisoblanadigan eskirish (amortizatsiya) kiradi. (aktivdan unumli foydalanish muddati xo'jalik yurituvchi sub'ektining faoliyat olib borish muddatidan ortib ketmasligi kerak.)

Nomaterial aktivlar bo'yicha, agar undan unumli foydalanish muddatini aniqlash mumkin bo'lmasa eskirish me'yori besh yil muddatga mo'ljallangan.

Ishlab chiqarish xarajatlarining beshinchi elementi «Ishlab chiqarish harkteridagi boshqa xarajatlar» deb atalib, unda 1, 2, 3 va 4 elementlar guruhlarida keltirilgan elementlar xarajatlarini hisobga olish kompleks moddalar hisobga olinadi:

- Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar;
- Ishlab chiqarishni xom – ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asboblari, moslamalar va boshqa mehnat vositalari hamda predmetlari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

- Ishlab chiqarishning asosiy vositalarini ishchi holatida saqlab turish bo'yicha xarajatlar (texnik qarov va tekshiruv xarajatlari, o'rta, joriy va kapital ta'mirlash o'tkazilish xarajatlari). Xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z kuchi (mablag'i) hisobidan ishlab chiqarish asosiy vositalarini ta'mirlash (barcha turdagi: joriy, o'rta, kapital) xarajatlari tegishli ishlab chiqarish xarajatlari elementlari bo'yicha mahsulot (ish, xizmat)ning tannarxiga qo'shiladi.

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnik ekspluatatsiya qoidalarida nazarda tutilgan yong'inga qarshi va qo'riqlash xizmatlari hamda boshqa maxsus talablar bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

- Ishlab chiqarishning xususiyatlari va qonunchilik tomonidan nazarda tutilgan normal mehnat hamda texnika xavfsizligi sharoitlarini ta'minlash bo'yicha xarajatlar.

- Ishlab chiqarish jaryniga aloqador bo'lgan boshqaruvning tezlik vositalari, aloqa bo'g'inlari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlari va boshqalar bilan ta'minlash. Ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- Xizmat ko'rsatishning kafolatli muddati o'rnatilib qo'yilgan buyumlarning kafolat ta'miri va xizmat ko'rsatkiya xarajatlari paxta tozalash korxonalarini uchun paxta tolasining ishlab chiqarish tannarxini aniqlovchi quyidagi kalkulyatsion xarajatlar moddasi namenskaturasi mavjud.

Xom-ashyo:

1. Paxta xom ashyosini sotib olish (harid qilish) qiymati.
2. Tayyorlash-transporti xarajatlari.
3. Ikkilamchi (pobochniy) mahsulot qiymati (chiqarilib yuboriladi).
4. Chiqindilar qiymati (chiqarib yuboriladi, olib tashlanadi).
5. Ikkilamchi (pobochniy) mahsulot va chiqindilar qiymati chiqarib yuborilgan holda xom ashyoning qiymati.

Ishlov berish bo'yicha xarajatlar:

6. O'rash (o'rov) materiallari.
7. Asosiy ishlab chiqarish tsexlari ishchilarining asosiy va qo'shimcha ish haqlari.
8. Yagona ijtimoiy to'lov uchun ajratmalar.
9. Umumishlab chiqarish xarajatlari.
10. Ishlov berish xarajatlari bo'yicha jami.
11. Paxta tolasini jami ishlab chiqarish tannarxi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish va hamda hisobga olish mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya uchun korxonaning bo'linmalari asosiy va qo'shimcha ishlab chiqarishga ajratiladi. Undan tashqari sanoat korxonalarida nosanoat korxonalarini ham mavjud bo'ladi.

Paxta tozalash korxonalarida asosiy ishlab chiqarish sohasiga quyidagi operatsiyalar kiradi - paxta xom ashyosini ishlab chiqarishga qo'yish (berish), paxta xom ashyosiga zavodning tozalash tsexida ishlov berish, jinlash (djinirovani), lintlash, presslash (bosma holatiga keltirish). Shuningdek asosiy ishlab chiqarishga paxta zavodining uzluksiz texnologik jarayoniga qo'shilgan quritish-tozalash tsexlari ham kiradi.

Sanoat korxonasini yordamchi ishlab chiqarishlari asosiy ishlab chiqarishga asboblari, moslamalar, jihozni ta'mirlash ehtiyot qismlari, turli energiya (elektroenergiya, bug', gaz, havo va boshqalar), transport va boshqa xizmatlar, shuningdek asosiy sanoat ishlab chiqarish fondlarini ta'mirlash bo'yicha ishlarni bajarish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Paxta tozalash korxonalarida quyidagi uchastka (tsex, ustaxona) lari yordamchi ishlab chiqarish hisoblanadi: mexanik ta'mirlash ustaxonasi, asboblari va o'tkirlash tsexi, elektr tsexi, transport bo'limi. Urug'lik chigit tayyorlash tsexi ham yordamchi ishlab chiqarish tsexidir.

Nosanoat xo'jaliklari korxonasi personalini (xodimlari)ning maishiy ehtiyojlariga xizmat ko'rsatadi.

Bu xo'jliklarning xizmatlari sanoat korxonasi tovar mahsuloti tarkibiga kiritilmaydi. Paxta zavodining nosanoat faoliyatiga uning tayyorlov o'rami, shu qatorda quritish-tozalash tseklari kiritiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari asosan ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar moddalari kesishuvida rejalashtiriladi.

Davr xarajatlari – paxta tozalash korxonasi xarajatlarini hisobga olish tizimida yangi ko'rsatkichdir. Davr xarajatlari toifasiga bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiritiladi. Bu xarajatlar korxonaning mahsulot ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lmaganligi, lekin asosiy faoliyat va mahsulotni sotish faoliyati bilan bog'liq bo'lganligi uchun ularni operatsion xarajatlar, ba'zan umumiy va ma'muriy xarajatlar deb ataladi. Ular ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot yoki tovarning hajmiga bog'liq bo'lmaydi, aksincha, ular ko'proq ravishda vaqt bilan, xo'jalik faoliyati yuritilishining davomiyligi bilan bog'liq bo'ladi. Bu xarajatlar yig'iladi (umumiylashtiriladi) va hosil bo'lgan hisobot davriga hisobdan chiqariladi.

Davr xarajatlariga umumxo'jalik xarajatlari, shuningdek avvalgi davrda balans daromadini kamaytirishga tegishli bo'lgan yoki daromad hisobiga amalga oshirilgan ba'zi xarajatlar ham kiradi.

“Davr xarajatlari” elementiga quyidagi xarajat moddalari kiritiladi:

- sotish xarajatlari;
- boshqarish bo'yicha xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar (ilmiy-izlanish va tajriba-yaratuvchan-lik ishlanmalari, ishlab chiqarishni va boshqaruv tizimini rivojlantirish bo'yicha ishlanmalar xarajatlari qo'shilgan holda).

“Davr xarajatlari” ni hisobga olish uchun 26 “Davr xarajatlari” scheti quyidagi sub'ektlar bilan ochiladi:

1. Sotish (realizatsiya) xarajatlari;
2. Ma'muriy xarajatlar;
3. Boshqa umumxo'jalik xarajatlari;

4. Kelajakda soliqqa tortish bazasidan chiqarib yuboriladigan hisobot yilining xarajatlari.

Korxonaning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari "Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar" moddasida aks ettiriladi. Bu moddaga quyidagilar kiradi:

- a) fondlar bo'yicha xarajatlar;
- b) chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs farqlari;
- v) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan vositalarni ortiqcha baholash xarajatlari;
- g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Favqulotda zarar – bu korxonaning xo'jalik faoliyatida juda kam holda paydo bo'luvchi zarar.

Korxonaning odatiy va korxonada qabul qilingan boshqaruv qarorlarining natijasi emas.

U yoki bu xarajat moddasi favqulodda zarar deb aks ettirilishi uchun xarajat quyidagi uch mezonga mos tushishi kerak :

1. O'z xarakteriga ko'ra nojoiz (korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga zid bo'lishi) bo'lishi.
2. Bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak.
3. Korxonaning ma'muriy xodimi va korxonaning mulkdori tomonidan qabul qilingan qarorga bog'liq bo'lmasligi.

Favqulodda zarar deb – ko'riladigan xarajat moddasi noodatiy va kutilmagan deb baholanuvchi mezonlarga mos tushgandagina favqulodda deb topiladi. Favqulodda zararlarni alohida modda bilan ajratishining asosiy maqsadi faoliyat natijalarini favqulodda daromadlar va zararlarning hosil bo'lishi xarakteridan kelib chiqqan holda ob'ektiv aks ettirishdir.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini rejalashtirish. Paxta tozalash korxonasi rejasida hisob-kitoblar ikki ekspluatatsion davrda yuritiladi. Chunki kalendar yil davomida ikki hosil paxta xom ashyosi qayta ishlanadi:

- birinchi ekspluatatsion davrda – rejalashtirilayotgan yilning 1 yanvari holatiga o'tgan yilning paxta xom ashyosi hosili qoldig'i;

- ikkinchi ekspluatatsion davrda – yangi hosil paxta xom ashyosi (rejelashtirilayotgan yilda tayyorlanadigan paxta xom ashyosi).

Bu davrlar orasidagi oraliq noekspluatatsion davr deb ataladi.

Paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish va hisobga olish hamda tovar mahsulotni sotishni hisobga olish quyidagi xarajatlarni aniqlash uchun amalga oshiriladi:

- a) paxta xom ashyosini sotib narxini aniqlash;
- b) paxta xom ashyosini tayyorlash xarajatlarini aniqlash;
- v) paxta xom ashyosini zavodga etkazib borish xarajatlarini aniqlash;
- g) paxta xom ashyosining tannarxini aniqlash;
- d) paxta tozalash korxonasining ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha xarajatlarini aniqlash;
- e) paxta tolasining ishlab chiqish tannarxini aniqlash;
- j) boshqa turdagi mahsulotlarning ishlab chiqish tannarxini aniqlash;
- z) davr xarajatlarini aniqlash (boshqaruv va sotuv xarajatlari);
- i) moliyaviy faoliyatlarini xarajatlarini aniqlash;
- k) favqulodda xarajatlarni aniqlash (faqat hisobot bo'yicha);
- l) tovar mahsulotning 1 so'miga nisbatan barcha xarajatlar jarajasini aniqlash.

Paxta xom ashyosini tayyorlash, qabul qilish va ko'chirish bo'yicha yig'ilish hisobi. Tayyorlash faoliyatining ortiqcha xarajatlari ikki guruhdagi xarajatlarga bo'linadi: - paxta xom ashyosini tayyorlash bo'yicha xarajatlar va uni zavod etkazib borish xarajatlari. Bu ikki guruh xarajatlari alohida smetalarda ko'rsatiladi.

Tayyorlov punktlarining xo'jalik faoliyatining rejadagi xarajatlar smetasi tuziladi.

Paxta tozalash korxonasidan tashqaridagi tayyorlov punktlarining xarajatlari smetasiga paxta xom ashyosini qabul qilishdan boshlab to paxtani avtomobil va vagonlarga yuklashgacha bo'lgan barcha xarajatlar kiritiladi. Zavod ichidagi tayyorlov punktlari xarajatlari smetasiga faqat paxta xom ashyosini qabul qilish xarajatlari kiritiladi holos, chunki bu holda paxta qabul qilish yakunlangandan so'ng paxta xom ashyosi zavodning omborida saqlanadi va shundan kelib chiqqan barcha

kelajakdagi xarajatlar tayyorlov faoliyatiga emas, zavodning ishlab chiqish faoliyatiga tegishli bo'lishi hisobga olinadi.

Paxtani tayyorlash bo'yicha xarajatlar smenasi uch bo'limdan iborat bo'ladi:

1. Tayyorlash bo'yicha xarajatlar;
2. Paxta xom ashyosini zavodga jo'natish bo'yicha xarajatlar;
3. Umumiy tayyorlash (umumiy ishlab chiqarish) xarajatlari (bu xarajatlarga ma'muriy-boqaruv xarajatlari ham kiradi).

Tayyorlash bo'yicha xarajatlarga bevosita paxta xom ashyosini qabul qilish, navlarga ajratish bilan bog'liq bo'lgan va uni buntlarga yoki boshqa saqlash joylariga joylashtirish (ishchilarga asosiy va qo'shimcha ish haqlari, ijtimoiy sug'urta uchun ajratmalar materiallar va asbob-uskunalar xarajatlari, boshqa xarajatlar) kiradi.

Paxta xom ashyosini paxta tozalash korxonasiga jo'natish bo'yicha xarajatlarga uni (paxta xom ashyosini) qoplarga joylash va transport vositalariga yuklash (ishchilarga asosiy va qo'shimcha ish haqlari, ijtimoiy sug'urta uchun ajratma, boshqa xarajatlar) kiradi.

Umumiy tayyorlash xarajatlariga xarajatlarning ko'p turlari kiritiladi: tayyorlov punktining ma'muriy-boshqaruv xarajatlari (ish haqi, komandirovkalar, kontselyariya va pochta xarajatlari, idora binolarini ta'minlash va xokozo); ko'p mohiyat talab qiladigan ishlarning mexanizatsiya vositalarini ta'minlash bo'yicha xarajatlar (shu mexanizmlarni ta'minlovchi ishchilarning ish haqlari, elektr energiyasi, materiallar va boshqalar); ombor binolari, saqlash vositalari maydonchalarini saqlash (ta'minlash) va paxta xom ashyosini zavoddan tashqaridagi tayyorlov punktlarida saqlab turish bo'yicha boshqa xarajatlar (ish haqi, paxta xom ashyosini saqlash bo'yicha manerial va boshqa xarajatlar, saqlash joylarini ta'mirlash va ta'minlash xarajatlari, saqlash vositalarining eskirishi, o'lchov asboblari va tarozilarni tekshirish va tamg'alash xarajatlari, quritish va tozalash tsexi xizmati to'lovi va boshqa xarajatlar).

### 3.1.1 - jadval

#### **”Surxondaryo paxtasanoat” XAB tarkibidagi “Sherobod” paxta tozalash korxonasi ning tovar mahsuloti hajmi auditi (2013y.)**

Ko'rsatkichlar	SHartli belgilanishi	Ko'rsatkich qiymati		Rejadan tafovut	
		reja	haqiqatda	mutlaq	nisbiy%
Tovar mahsuloti, ming so'm	T	6600	6890	+ 290	+4,4
Ro'yxatdagi o'rtacha ishchilar soni,kishi	ICH	264	265	+ 1	+0,4
Bir ishchining o'rtacha yillik mehnat unumdorligi,ming so'm/kishi	YM	25	26	+ 1	+4,0
Yil bo'yicha bir ishchi tomonidan ishlagan ish kunlari,kun	D	200	210	+ 10	+5,0
Ishchining o'rtacha bir kunlik mehnat unumdorligi,ming so'm/kishi	DM	185	123,81	- 1,19	-0,952
Smenaning o'rtacha davomiyligi,soat	P	8	7,9	-0,1	-1,25
Ishchining o'rtacha soatlik mehnat unumdorligi, ming so'm/kishi	SM	15,625	15,672	+0,047	+0,3

Bizga ma'lumki, omillar ko'p hollarda o'zaro bir-biri bilan funktsional bog'lanishga ega bo'ladi. Masalan, paxta tozalash korxonasida yillik tovar mahsulot (T) hajmi birinchi darajali ikkita asosiy omil: ishchilar soni (ICH) va ularning o'rtacha yillik mehnat unumdorligiga (YM) to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Umumiy tayyorlash xarajatlarining alohida moddasiga tayyorlov punkti laboratoriyalarini saqlash (ta'minlash) xarajatlari kiritiladi.

Yong'inga qarshi va qoravul (qo'riqlash) xizmatini ta'minlash xarajatlari ham sezilarli o'rin tutadi. Bu erda ish haqidan tashqari, kiyim-bosh (maxsus kiyim) xarajatlari va tez yonuvchi material hisoblanuvchi paxtani qo'riqlash bo'yicha boshqa xarajatlar ham hisobga olinadi.

Umumiy tayyorlash xarajatlari tarkibiga urug'lik chigitni tayyorlash, ularni yuklash-tushirish va tayyorlov punktida saqlash xarajatlari ham kiritiladi.

### **3.2. Paxta xom-ashyosini qayta ishlash xarajatlarini auditi**

Mahsulotning tannarxi – qo'shma sintetik ko'rsatkich bo'lib, unda ilmiy-texnik rivojlanish yutuqlaridan foydalanish darajasi, xo'jalikni boshqarish darajasi aks etadi.

Bozor munosabatlari sharoitlarida xarajatlarni pasaytirish – korxonaning daromadligi va rentabelligini oshirishning bosh omilidir.

Tannarxni audit o'tkazish vazifasi quyidagilardan iborat:

- korxonada xo'jalik faoliyat davomida yuzaga keluvchi xarajatlarni auditi;
- ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha rejaning dinamikasi va darajasini o'rnatish;
- ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichlari dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- alohida turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini auditi;
- iqtisodiy elementlar va kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha xarajatlar tuzilmasi va dinamikasini o'rganish;
- mahsulotni ishlab chiqarishni pasaytirish istiqbollari aniqlashtirish.

Tannarxni audit o'tkazishda asosiy maqsadi ularning ishlab chiqarish ichidagi qo'shimcha zaxiralarini izlab topishdir. Tannarx – bu quyidagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'liqli ravishda xosil bo'luvchi ko'rsatkichdir: mahsulotni chiqarish, texnika darajasi va uning samaradorligi; mehnat resurslarining holati va ulardan foydalanish; shuningdek xom ashyo va materiallarning holati va ulardan foydalanishni ham hisobga olish zarur, chunki, paxta tozalash sanoati ko'p material iste'moli talab qiladigan tarmoqlarda tannarx uchun ahamiyatlidir.

Tannarxda ishlab chiqarishda erishilgan barcha ko'rsatkichlar darajasi aks etadi va tannarx o'sha ko'rsatkichlarga bog'liq ravishda shakllanadi.

Ishlab chiqarishda erishilgan barcha ko'rsatkichlar asosida xarajatlar va mahsulotlarning tannarxining o'tkazilganda material va mehnat xarajatlarning zaxiralaridan foydalanishga imkoniyat beradi.

Shu maqsadda mahsulotning tannarxi auditi mazmuni kengroq yoritish uchun quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi:

- Mahsulot birligining tannarxi.
- Tovar mahsulotining 1 so'mi uchun xarajatlar;
- Taqqoslanayotgan tovar mahsulot tannarxini pasaytirish darajasi

Paxta tozalash sanoatida xom ashyoni ishlatish ko'rsatkichlari darajasi korxonada faoliyati asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar butun to'plami darajasiga xal qiluvchi ta'sir etadi. Paxta xom ashyosini ishlatishning asosiy ko'rsatkichi tola chiqishidir.

Paxta xom ashyo sida tola chiqishi ko'p darajada tayyorlangan xom ashyosining sifatiga bog'liq bo'lib, paxta xom ashyosini sifati esa asosan ob-havo sharoitlari va ularni qayta ishlash davrigacha saqlashni tashkil etishga bog'liq.

Paxta xom ashyosini tayyorlash va uni birlamchi ishlov berishda qo'llaniladigan texnikaning takomillashganli, texnologik jarayoni tashkil etish esa o'z navbatida tola chiqishiga ko'p ta'sir etadi (3.2.1-jadval).

“SHurchi” paxta tozalash korxonasi misolida ko'rib chiqamiz (2013 yil ma'lumotlari asosida).

### 3.2.1-jadval

#### “Shurchi” paxta tozalash korxonasi har bir so'mlik ishlab chiqarilgan tovar mahsulotiga qilingan xarajatlar auditi

№	Ko'rsatkichlar	Tasdiqlangan reja	Qayta hisoblangan reja	Hisobot	Hisobotning chetlanishi			
					Tasdiqlangan reja		Qayta hisoblangan reja	
					m.s.	%	m.s.	%
1	2	3	4	5	6	7	8	9
I 1	Tovar mahsuloti hajmi, jami ming so'm shu jumladan	1391190	1382143	1382143	9047	0,65	-	-
	-paxta tolasi	1305457	1296410	1296410	9047	0,65	-	-
	-chiqindi mahsulotlar	85733	85733	85733	-	-	-	-
II	Tovar mahsulot ishlab chiqarish to'liq	1377435	1361868	1342787	34648	-2,6	19081	-1,4

	tannarxi, jami, ming so'm shujumladan:							
1	Paxtatolasi	1292935	1276135	1257054	35881	-2,8	19081	-1,5
2	Chiqindi mahsulotlar	84500	85733	85733	+1233	+1,4	-	-
III	Har bir so'm ishlab chiqarilgan tovar mahsulotiga qilingan xarajat, jami, tiyin	99,01	98,53	97,15	-1,86	-1,9	-1,38	-1,4
1	Tolaga	99,04	98,44	96,96	-2,08	-2,1	-1,48	-1,5
2	Chiqindi mahsulotlarga	98,56	100,00	100,00	+1,44	+1,44	-	-

Paxta tolasini rejaviy chiqishiga ko'ra paxta xom ashyosi sarflanishi kerak edi:

$5289 \text{ tonna} * 100 \% / 5115 \text{ tonna} = 100 \% \text{ yoki}$

$15967 \text{ tonna} + 103\% / 100\% = 16446 \text{ tonna}$ . Iqtisod qilishga (-), ortiqcha sarflanadi (+) paxta xom ashyosi:  $103\% - 100\% = 3\%$  yoki  $16446 \text{ tonna} - 15967 \text{ tonna} = 479 \text{ tonna}$ .

“Shurchi” paxta tozalash korxonasi 2013 yilda 5289 tonna paxta olingan, lekin rejada 5115 tonna paxta tolasini olish nazarda tutilgan edi. Shundan ko'rinib turibdiki, paxta zavodi tola ishlab chiqarish bo'yicha rejaning ortig'i bilan bajargan, natijada xom ashyosi 3 % ortiqcha sarf qilingan.

Tovar mahsulotining 1 so'mi uchun xarajatlar mahsulot hajmining 1 so'mi tannarxining darajasini xarakterlaydi. U barcha tovar mahsuloti tannarxini korxonaning ulgurji narxlardagi qiymatiga bo'lishdagi butun son ko'rinishida aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichning asl mohiyati butunligi, xarakatchanlik, keng toqqoslanuvchanlik.

Tovar mahsulotning 1 so'mi uchun amaldagi xarajatlar rejadagidan quyidagi omillar ta'siri ostida farqlanadi:

- 1) mahsulotning rejalashtirilayotgan tuzilmasi va assortimentini buzilishi;
- 2) buyumlar tannarxini pasaytirishi (o'sishi);
- 3) iste'mol qilingan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, sotib olinadigan yarimfabrikatlar, yuk tashishlar, energiya uchun mol etkazib beruvchilarning bahosi o'zgarishi;

4) tovar mahsulotining ulgurji narxlari pasayishi (o'sishi).

Ma'lum bir summadagi tovar mahsulotini olish uchun qancha sarf qilish kerakligi ko'rsatkichi orqali tannarx ko'rsatkichi foyda (daromad) hajmini aniqlashga yordam beradi. Tovar mahsulotining, ishlab chiqarish tovar mahsulotining 1 so'mi uchun xarajatlar darajasi ko'rsatikichi orqali tannarx ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish va rentabellik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro floqa o'rnatiladi.

Ushbu jadvaldan haqiqatda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotning ulgurji narxlardagi qiymatining summasi bir-biriga mos keladi (4 va 5-satrlar 14 qator), chunki ulgurji narxlar preyskurant bo'yicha o'rnatilgandir va shuning uchun uning darajasi ham rejada, ham hisobotda bir-biriga to'g'ri keladi. Bu esa auditni olib borish natajasida olinadigan ma'lumotlar ishonchlilik darajasini oshiradi.

### 3.2.2 - jadval

#### **“Angor” paxta tozalash korxonasi 2012-2013 yillarda tovar mahsulotining 1 so'mi xarajatlarini iqtisodiy element (unsur)lar bo'yicha auditi**

Ko'rsatkichlar	2012	2013	O'zgarishlar (+,-)
Ishlab chiqarish xarajatlari jami (ming so'mda)	7350381	7910295,8	-
Shu jumladan:			
a) material xarajatlari	6536450	7090183,2	-
b) mehnatga haq to'lash xarajatlari ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birgalikda	70325	77324,1	-
v) asosiy fondlar amortizatsiyasi	102356	111418,2	-
g) boshqa xarajatlar	641250	631370,3	-
Sotishdan olingan sof tushum (ming so'mda)	12475605	14494706	-
mahsulotning so'miga xarajatlar, jami (1 qator/6 qator : 100)	58	54,6	-3,4
Shu jumladan:			
a) materialning material iste'moli	52	48,9	-3,1
b) mahsulotni ish haqi iste'moli (3 qator/ 6 qator : 100)	0,5	0,6	0,1
v) amortizatsiya iste'molliligi (3 qator/6 qator : 100)	0,8	0,8	0
g) boshqa ta'sirli xarajatlar (5 qator/6	4,7	4,6	-0,1

qator : 100)			
--------------	--	--	--

Tovar mahsulotining 1 so'm uchun xarajatlar ko'rsatkichini aniqlash uchun oldindan uning to'liq tannarxini hisoblab chiqish kerak.

Tovar mahsulotining 1 so'mli uchun xarajatlar darajasiga mahsuloti ishlab chiqarish xarajatlari bilan birga uning assortementi va sifati xma ta'sir etadi, chunki assortement va sifat tovar mahsulotning ulgurji narxlarda hajmini tashkil etishga kuchli ta'sir etadi.

Tovar mahsulotining 1 so'mi xarajatlari, mahsulotning hajmi, assortementi va sifati hisobga olingan holda xarajatlarni aks ettiruvchi umumiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Mahsulot tannarxining 1 so'mi uchun xarajatlari ta'sirini xal o'rtanish zarur. Boshqa omillar ta'siri alohida o'rganiladi. Shu maqsadda bu ko'rsatkichni tahlili qilayotib rejani haqiqiy usuli qo'llaniladi

“Surxondaryo paxtasanoat” XAB tarkibidagi paxta tozalash korxonalarida iqtisodiy unsurlar bo'yicha mahsulot hajmining bir so'mi xarajatlari tahlili quyidagi mayl (o'zgarishlar tomon siljishlar) mavjudligini ko'rsatadi:

1) mahsulotning bir so'mi xarajatlari pasayishi quyidagi paxta zavodlarida quzatilgan:

1. “Sherobod” paxta tozalash korxonasida 3.4 tiyinga pasaygan.

a) bu erda pasayishning asosiy omili mahsulotning material iste'moli bo'lgan va natijada foyda 44943 so'mga ortgan.

b) ish haqi iste'moli 0.7 tiyinga kamaygan va foyda 79004 ming so'mga ortgan.

v) boshqa sezirarli xarajatlar 0.3 tiyinga kamaygan va foyda 38145 so'mga ortgan.

3. “Angor” paxta tozalash korxonasida 1.9 tiyinga kamaygan. Bu paxta tozalash korxonasida material iste'moli 0.2 tiyinga kamaygan.

4. Paxta tozalash korxonasida 3.8 tiyinga kamaygan. Xarajatlar kamayishining asosiy omili material iste'molini 3.8 tiyinga kamayishi bo'lgan.

Audit jarayonida korxonalar bo'yicha mahsulotning 1 so'mi xarajatlari pasayishining asosiy omili material iste'moli pasayganligi sabab bo'lgan boshqa omillar o'zgarishi (ish haqi iste'moli, amortizatsiya iste'moli va boshqa solishtirma xarajatlar) xarajatlar pasayishiga sezilarni ta'sir etmagan va foyda hajmiga ham ta'sir qila olmagan.

**3.2.3-jadval**

**Ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalanishning mahsulot tannarxi o'zgarishiga ta'siri**

Omillar	Qatorlar	Mahsulot hajmining 1 so'mi xarajatlarning o'zgarishi	To'liq tannarxning o'zgarishlari (ming so'm)		Foydaning o'zgarishi
			Rejada	Natija (+,-)	
Mahsulotni material iste'moli ortishi (o'sishi)	1	-3,1	-3,1 • 14494706/100	-144943	144943
Mahsulotni ish haqi iste'moli ortishi	2	0,1	0,1 • 14494706/100	1494	-1494
Mahsulotni amortizatsiya iste'moli pasayishi	3	0	-	-	-
Boshqa ta'sirli xarajatlarni kamayishi	4	-0,1	-0,1 • 14494706/100	-144946	144946
Jami		-3,1		-288392	288392

II) Mahsulotning 1 so'mi uchun xarajatlarning o'sishi quyidagi paxta zavodlarida kuzatiladi:

1. "Shurchi" paxta tozalash korxonasi 0.3 tiyinga ortgan. O'sish boshqa ta'siri (solishtirsha) xarajatlarning 0.6 so'mga ortib ketishi bo'lgan.

2. "Muzrabot" paxta tozalash korxonasida 13.6 tiyinga ortgan. Bu zavodda xarajatlar o'sishining omili material iste'moli 13 tiyinga ortganligi bo'lgan.

### 3.2.4 - jadval

#### Tolaning navlar bo'yicha kalkulyatsiyaga oid tannarxi

№	Tolaning miqdori, tonnada	Hamma tola jami xarajatlari					
	Ishlov berilgan paxta, t						
	Tola chiqishi, %						
	Tolaning kalkulyatsiyaga oid xarajatlar moddalari	Hisobot bo'yicha ishlab chiqarilgan tolaga qilingan xarajatlar, mingso'm			Bir tonna tola ishlab chiqarish tannarxi, so'm/tonna		
		Reja	Hisobot	Chet. (+,-)	Reja	Hisobot	Chet (+,-)
A	B	1	2	3	4	5	6
I	I. Xom ashyo qiymati						
1	Paxtaning xarid bahosi	983239	977318	-5921	85151	84638	-513
2.	Tayyorlov transport xarajatlari	121300	120382	-918	10505	10425	-80
3	Ikkilamchi mahsulot bahosi	85733	85733	-	7424	7424	-
4	Ikkilamchi mahsulot bahosi chegirilgan xom ashyosi bahosi (01+02-03)	1018800	1011967	-6839	88231	87640	-593
II	II. Ishlov bershp bo'yicha xarajatlar						
1	O'rash materiallari	40233	37607	-2626	3484	3257	-227
2	Asosiy ishlab chiqarish tsexlari asosiy va qo'shimcha ish haqi	28413	26964	-1449	2461	2335	-126
3	Ijtimoiy va tibbiy sug'urta ajratmalar	11965	10786	-1179	1036	934	-102
4	Umumiy ishlabchiqarish xarajatlari	66383	59395	-6988	5749	5144	-605
5	Paxtani qayta ishlash xarajatlari, jami	146994	134752	-12242	12730	11670	-1060
III	Paxta tolasi to'liq tannarxi	1165800	1146719	-19081	100961	99310	-1651

3. "Surxon" paxat tozalash korxonasi 6.6 tiyanga ortgan. Bu xarajatlar ortishi material iste'moli organligi natijasida yuz bergan va foyda 258841 so'mni tashkil etgan. Paxtani qayta ishlash bo'yicha jami xarajatlar hisobotda 134752 ming so'mni tashkil etib, rejadagi darajasidan 12242 ming so'mga kamaygan ekan bir tonna tola ishlab chiqarishda 1060 so'm/tonnaga arzonlashgan. SHunday qilib paxta tolasi to'liq tannarxi

hisobot yilida haqiqatda rejaga nisbatan 19081 ming so'mga kamaygan, bu esa ushbu paxta tozalash korxonasida mavjud resurslardan samarali foydalanilganligini ko'rsatadi (3.2.4-jadval).

Unuman olgan paxat tozalash korxonalarida xarajatlarnig ortishi mahsulotning material iste'moli va boshqa ta'sirli xarajatlar o'sganligi uchun yuz bergan. Bu holda foydani o'sishining bosh zaxirasi resurslarni material iste'molidan foydalanishni oshirishdan iborat.

Tovar 1 so'miga xarajatlari tahlili natijalari bo'yicha qayta ko'rib chiqish zarur. Chunki, alohida tur xarajatlari bo'yicha ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilgan bo'lishi mumkin. Natijada uning sabablarini aniqlash va bartaraf etish tannarxni pasaytirish qo'shimcha zaxiralarni xarajatga kiritishni talab etadi va o'z-o'zidan tovar mahsulot 1 so'mi xarajatlari kamayadi.

Tannarxning tuzilmasini oldindan o'rganib chiqish ham maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinganda tannarx tuzilmasining tarmoqdagi xarakterini, e'tibor berilishi kerak bo'lgan xarajatlar turlarini imkoni yaraladi va daromadning ichki ishlab chiqrishdagi zaxiralarni amalga kiritishga muvofiq bo'ladi.

Tannarxnig tuzilmasi har bir moddani tannarx tarkibida tutgan ta'sir ahamiyati bilan xarakterlanadi.

Mahsulotning tannarxi kalkulyatsiyasiga qayta ishlov berilgan paxta xom-ashyosi o'rtacha hisob kitob baholarda olinadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Xarajatlarni hisob-kitobi paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarish faoliyatining ikkita asosiy bo'limi bo'yicha tashkil etilgan. Xarajatlarning turlari tayyorlov –transport xarajatlari ishlovi bo'yicha xarajatlarga bo'linadi. Xarajatlarning hisob-kitobida absalyut va nisbiy ko'rsatkichlar asosida olib boriladi. Xarajatlarning pullik qiymati tolaning tannarx ko'rsatkichida ifodalanadi. Tannarxning ishlab chiqarish tannarxi, sotish xarajatlari va ma'muriy xarajatlar ya'ni davr xarajatlari to'liq tannarxni tashkil etadi.

2. Tannarx bo'yicha xarajatning tahlili shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish tannarxining tarkibida xom-ashyoning xarid narxi 85-90% ni tashkil etadi. Energetik resurslari xarajatlari tarkibida 10% dan kam narxlar o'sishining energiya resurslariga ta'siri deyarli sezilmaydi. Zamonaviy xalqaro hisob-kitob usullarida xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lish keng tarqalgan. Biz doimiy xarajatlarga ish xaqi va ijtimoiy sug'urta xarajatlari yoqilg'i energetika xarajatlarini kiritishimiz mumkin. Ishlab chiqarishga bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar bu paxtaning tayyorlov bo'yicha sarflanadigan xarajatlari. Bu xarajatlarni kamaytirish paxtani ishlab chiqarish xajmi tolaning iste'molchiga xom-ashyoni sifatiga bog'liq jahon bozorida paxta tolasining 1-2 navlariga talab juda yuqori. Bu tolni korxonada ishlab chiqarish uchun sifatli xom-ashyo olish kerak.

3. Korxonaning moliyaviy boshqaruvi tizimining asosiy bo'laklaridan biri xarajatlarni boshqarish tizimi. Bu tizimni takomillashtirishda quyidagi elementlarni ajratish lozim: xom-ashyo xarajatlari, tayyorlov transport xarajatlari, asosiy ishchilarning ish xaqi xarajatlari va ijtimoiy sug'urta xarajatlari, umum tsex xarajatlarini boshqaruvi. Xarajatlarni boshqarish tizimining samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar ulgurji narx tarkibida xarajatlarning miqdori narxning shakillanishida, ya'ni daromadning xajmiga xarajatlarni ta'siri ko'rsatadi. Tovar mahsulotning narxiga asosan tolagi sarflangan xarajatlarni kamaytirish uchun xom-ashyo xarajatlarini kamaytirish, ya'ni tayyorlangan xom-ashyoni xarajatlarini kamaytirish kerak.

4. Korxonada xarajatlarini boshqarishda transport xarajatlarini qisqartirish maqsadga muvofiq. Bu yo'nalishda biz korxonada yangi logistik tizimni ishlab chiqarishni taklif etamiz. Bu tizimni yangi korxonada uchun samarali xaridor va xom-ashyo etkazib beruvchi xamkorlarni tanlash uchun mo'ljallangan tizimdan, yangi samarali transport marshrutlarini ishlab chiqish va materiallarni sarflashda optimal me'yorlarni ishlab chiqadigan tizimni yaratish lozim.

5. Korxonalarning sotish faoliyatini o'rganish davomida sotish faoliyati xizmatlarining asosiy masala va funktsiyalari, muommalari, bu xizmatlarning faoliyati yo'nalishlari hamda mahsulotni sotish xarajatlarining faoliyat tarkibiga qo'shiluvchi xarajatlar tahlil qilindi va ilovalar berildi.

6. Paxta tolasi, chigit va lint mahsulotlari paxta tozalash korxonalarida uchun asosiy mahsulot bo'lib hisoblanadi va ular xarajatlarni xo'jmidan 98-97% ini tashkil etadi. Xarajatlarni boshqaruv tizimini takomillashtirishda faqatgina nazorat asosida tashkil qilinmasdan, ya'ni paxta xom-ashyosini qabul qilish jarayonida yo'l qo'yiladigan zararlarni kamaytirishdan, xom-ashyoni sifatini oshirishga qaratilgan moddiy va texnologik jihatlarni hisobga olgan holda boshqaruvni tashkil etish kerak. Zarar keltiradigan xarajatlarni, ya'ni korxonani daromadini kamaytiruvchi xarajatlarni kamaytirish kerak.

7. Audit o'tkazish jarayonida xarajatlarni boshqarishda quyidagi natijalarga korxonada erishgan. Aktivlarning aylanishi korxonada 405,5 kundan 363,5 kunga qisqargan. Aylanma aktivlarning aylanishi tezlashgani uchun operatsion tsiklning davomiyligi 98,6 kunningi tashkil etdi. Kreditorlik qarzlari jami oshgan 872314 ming so'mga, mol etkazib beruvchilarga beriladigan to'lovlar byudjet bo'yicha to'lanmagani 3288 ming so'mga oshgan. Kreditorlik qarzlarni aylanish koeffitsienti 141 kun, demak, bu ko'rsatkich korxonada uchun etarli emas. Aktivlarga joylashgan rentabellik pasaygan 0,9 ga, ayniqsa o'z kapitali rentabelliklari pasaygan. Bu ishlab chiqarishdan olingan rentabellik darajasi 6,6% ga oshganligi etarli emas ekanligini ko'rsatadi.

Demak, korxonada ish faoliyati bo'yicha samaradorligini oshirish kerak, ya'ni tola chiqishi, sof tushumlar, sof foydani oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Rasmiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni. 1996 yil 30 avgust. – T.: Adolat, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida”gi Qonuni. 1991 yil 15 fevral
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: O'zbekiston, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida”gi Qonuni. –T.: Adolat, 1996.
6. O'zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. (yangi tahriri) – T., 2000 (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan).
7. O'zbekiston Respublikasining “Davlat statistika to'g'risida”gi Qonuni. 2002 yil 12 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasining "Asosiy xo'jalik faoliyati daromadlari" nomli 2-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti.

### II.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari

9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etishdir.- T.: “O'zbekiston”, 2005.
10. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. Xalq so'zi. 2008 yil 9 fevral.
11. Karimov I.A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, halqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish asosiy vazifamizdir.–T.: “O'zbekiston”, 2008.
12. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. - 56 b.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 19.01.2014.

### **III.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari**

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korxonalar va korxonalar rahbarlarining xalq xo'jaligidagi hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazish uchun javobgarliklarini oshirish borasida chora-tadbirlari to'g'risida" 1995 yil 12 maydagi PF- 1154-son Farmoni.1999 yil 19 iyul.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2003 yil 30 avgust PF-3305-son Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

### **IV. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari**

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom to'g'risidagi 1999 yil 5 fevral 54-son qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «2007 - 2011 yillarda paxta tozalash sanoati korxonalarini modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish dasturi to'g'risida» 2007 yil 3-apreldagi 70 – sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi 13-sonli “Tahliliy amallar” nomli AFMS. O'zR Adliya vazirligida 1999 yil 03 sentyabr 814-son bilan ro'yxatga olingan.
16. O'zbekiston auditorlarining 2005 yil 25 iyuldagi Kasbga oid Ahloq Kodeksi. Auditorlar uchun qo'llanma. –T.: O'zBAMA, 2007.

## **V. Kitoblar, monografiyalar va risolalar**

17. Vahobov A. V va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. -T.:Sharq, 2005. – 580 b.
18. Do'smurotov R.D. Audit asoslari. -T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -604 b.
19. Auditorlar uchun qo'llanma. i.f.d., prof. M.M.Tulaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. - T.:, O'BAMA, 2005, – B.196.
20. Abdulkarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish. T., “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2001. – B.320.
21. Abdulkarimov I.T. Finansovaya otchetnost, ee xarakteristika i podgotovka k analizu. Tambov. TGU. 2002. – B.85.
22. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003. – B.224.
23. Ergeshev E.E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Moliya, 2005. – B.345.
24. Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit.-T.: Iqtisod-moliya, 2008. –B.153.
25. Kovalev V.V. Finansoviy uchet i analiz: kontseptualnie osnovi. M.: Finansi i statistika. 2004.
26. Musaev X ,N. Audit. Darslik. T.: Moliya, 2003. – B.220.
27. Mamatov Z.T. Audit. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2007.

28. Pardaev M.Q. Loyiha tahlili. Samarqand. 2001.
29. Podolskiy V.I. Audit. M.: YUNITI, 2006. – S.420.
30. Pugachyov V.V. Vnutrenniy audit i kontrol. Organizatsiya vnutrennego audita v usloviyax ekonomicheskogo krizisa: ucheb. –M.: Delo i servis, 2010. – S. 224.
31. Sanaev N. Audit. T.: Bilim nashriyoti, 2004. – B.267.
32. Axmadjonov K.B, YOqubov I.I. Audit asoslari. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. – B.286.
33. Mamatov Z.T., Norbekov D.E. Audit asoslari-T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. – B.140.
34. Naletova I.A., Slobodchikova T.E. Audit. – M.: Forum: INFRA –M, 2005. – S.176.
35. Pardaev M.Q. Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. I-II-qism. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2001.
36. Tulaxodjaeva M.M., Ilxomov Sh.I. Audit. O’quv qo’llanma. T.: 2005. –B.160.
37. Xasanov N.X., Najbitdinov S. Korxonalar moliyaviy hisobotini baholash: muammolar va ularni hal qilish. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 1999.
38. Xasanov B.A., Zokirova M.Sh. Aliboev Z.A. Ichki auditni avtomatlashtirish asoslari. O’quv qo’llanma. – T.: O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2003. – B. 162.
39. Pardaev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. T.: Mehnat, 2004.
40. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi “Audit” 1-2-tom. T.: 2004.
41. Audit: Uchebnik dlya vuzov / V.I.Podolskiy, G.B.Polyak, A.A. Savin i dr. – 3-e izd., pererab. I dop. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – S. 186.
42. Audit. O’quv qo’llanma. / Do’smurotov R.D., Fayziev SH.N., Qo’ziev I., Po’latov G’. – T.: TMI, 2007. B.139.
43. Tulaxodjaeva M.M., Ilxomov Sh.I., Fayziev Sh.N., Xodjaeva M.X., Tulaev M.S. Audit. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi”, 2008. I,II qismlar.

44. Audit. (darslik). / Tulaxodjaeva M.M., Ilxomov Sh.I., Axmadjonov K.B., Xodjaeva M.X., Tulaev M.S. – T.: TDIU, 2010. – B.460.
45. Mamatov Z.T. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobot auditini o'tkazishni takomillashtirish masalalari: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent.: O'zR Bank-moliya akademiyasi, 2005. – 40 b.
46. G'ulomxodjaev A. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.: O'zR Bank- moliya akademiyasi, 2009. –28 b.
47. Pardaev M.Q. va boshqalar. Korxonalarining iqtisodiy salohiyati tahlili. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2003. -256 b.
48. Pardaev M.Q., Abdulkarimov I.T., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. -T.: Mehnat, 2004. – 484 b.
49. Aliqulov A.I. Sovershenstvovanie ucheta zatrat na proizvodstvo, pererabotku i ischislenie sebestoimosti produktsii xlopka-sirtsya v xlopkovom komplekse (na materialax xlopkovodcheskix xozyaystv i xlopkooochistitelnix zavodov samarkandskoy oblasti: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: Toshkent moliya instituti. 1999.– 24 b.
50. Pardaev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy tahlilning nazariy va metodologik muammolari.: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: O'zR bank-moliya akademiyasi. 2002. – 43 b.
51. Ilxomov Sh.I. Investitsiya faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit.:Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: O'zR bank-moliya akademiyasi. 2005. -24 b.
52. Isroilov J.I. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining iqtisodiy tahlili.: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: O'zR bank-moliya akademiyasi. 2004. - 24 b.

53. To'ychiev A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahsulotlarni sotish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash hisobi va tahlilini takomillashtirish.: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. -Toshkent.: O'zR bank-moliya akademiyasi, 2006. - 143 b.
54. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari.: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati -Toshkent.: O'zR bank-moliya akademiyasi, 2004. - 24 b.
55. Xolbekov R.O. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O'zR bank-moliya akademiyasi. 2006. – 46 b.
56. Zulunova F.A. Korxonalarining moliyaviy salohiyati tahlilini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. – Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2009.
57. Pardaev M.K., Isroilov B.I. Faktorniy analiz rezultatov deyatelnosti predpriyatiy //Ekonomicheskiy vestnik O'zbekistana.- Tashkent, 2002. -№ 10-11. –S. 26-28.
58. Kudbiev Sh. Korxonalar moliyaviy hisobotini takomillashtirish // Bozor, pul va kredit. –Toshkent. 2006. –№3. - 46-48 b.
59. Tojiboeva Sh.A. Savdo korxonalarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish yo'llari // Iqtisodiyot va ta'lim. - Toshkent, 2005.- № 1. - 95-102 b.
60. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2011-2013 yillar bo'yicha statistik ma'lumotlari.

## VI. Internet saytlari

69. <http://www.nalog.uz>
70. <http://www.finstst.ru>
71. <http://www.norma.uz>
72. <http://www.edu.uz>
73. <http://www.tsue.uz>
74. <http://www.mf.uz>